

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASI KAFEDRASI

JABBOROVA ZERO RAXMATJONOVNA

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA XALQ OG‘ZAKI IJODI USTIDA ISHLASH
USULLARI**

5111700-boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.n. Vafoyeva M..

Bitiruv malakaviy ishi boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida bajarildi. Kafedraning
2015 yil «___» maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma
№___).

Kafedra mudiri

dots. Shodiyev F.T.

Bitiruv malakaviy ishi YADAKning 2015 yil «___» iyundagi majlisida himoya qilindi va
«___» balga baholandi (bayonnoma №___).

YADAK raisi

p.f.d.,prof. Tadjiyev M.

A‘zolari

Samarqand – 2015

MUNDARIJA:

KIRISH	2
I BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI ORQALI O'QUVCHILAR TAFAKKURINI O'STIRISHNINIG NAZARIY ASOSLARI.	
1.1. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish va ularda DTS talablari.....	6
1.2. Boshlangich sinflarda xalq og'zaki ijodining nazariy asoslari.....	22
II BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH YO'LLARI	
2.1 Boshlangich sinflarda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati.....	54
2.2.Ertak, maqol matnini o'qitishda interfaol ta'lim.....	60
XULOSA	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	81

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotida bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ko'plab o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining to'qqiz yillik tizimga o'tkazilishi, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning tashkil etilishi buning yaqqol dalili bo'ldi. Shu bois Respublikamizda ko'plab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari qurilib ishga tushirildi. Shu bois hozirgi kunda yoshlarni ta'lim-tarbiya olishlari uchun zaruriy chora-tadbirlar belgilanib, muayyan ishlar amalga oshirildi.

Har bir inson umri davomida xalq o'g'zaki ijodidan bahramand bo'lib ulg'ayadi. Bolaligida ertak eshitib katta bo'lmagan odam bu dunyoda yo'q desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har bir odam dunyoga kelgach, turli darajadagi ertak, rivoyat, afsonalarni eshitadi va aynan o'shalar orqali dunyoni o'rganadi. Ularda xalq badiiy tafakkurining eng sara mevasi yashiringan. Buni anglash va ularni qayta kashf etish kishiga hayotni tushunish, odam va olam munosabatlarini o'rganishga yordam beradi. Shu ma'noda o'zbek xalq og'zaki ijodining tur va janrlarini o'rganish, ular ustida ishlash va ularning turli davrlarda turli ijtimoiy vazifani bajarishini o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "... ajdodlarimizning tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari... bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir" (3.31). Lekin xalq og'zaki ijodi va uning mif, ertak, doston kabi janrlari zahiriga yashiringan ko'plab hikmatlar hali to'la o'rganilmagan. O'rganilganlari ham kishilik jamiyatining ma'lum bir davrida qayta tahlil va ilmiy izlanishni talab qiladi.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish – xalq tarixi, urf-odati, an'analari, o'y-kechinmalari, buguni va kelajagini tadqiq etish demakdir. Unda millatning o'zini anglashi, o'zligini namoyon qilish xislatlari, intilishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari,

hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi" (3.30).

Ana shunday yuksak ma'naviyatimizning asosi hisoblangan xalq og'zaki ijodini tom ma'noda anglash uchun esa uning g'oyaviy-badiiy va janr xususiyati, poetik strukturasi, tarixiy ildizlari hamda mifologik asoslari atroflicha tadqiq etilishi lozim bo'ladi. Xalq og'zaki ijodini o'rganishda bunday kompleks yondoshuv uning jonli og'zaki ijro sharoitida o'ziga xos ravishda yaratish, tarqalish xususiyatlarini, uzoq asrlik taraqqiyot jarayonida xalq dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog'liq ayrim hodisalarning aks etishi darajasi, konkret asarlar syujeti, obrazlar tizimida turgan o'rni, badiiy vazifasi hamda mohiyatini alohida-alohida tadqiq etishni talab etadi.

Kishilik jamiyatining ilk davridagi odam tushunchasi, dunyoqarashi inson ongining eng qadimgi manbasi sifatida e'tiborga loyiq. Dunyo haqidagi bilim va tasavvurlarni hosil qilish, boyitishga xizmat qiluvchi turli mif (asotir)lar ning bari ijtimoiy ong shakllaridir. Ilk odam o'zi anglab – anglamay bugungi kunda san'at, ilm-fan, badiiy adabiyot, axloq, huquq, siyosat kabi turli sohalarining ilk kurtaklari shakllanishiga xizmat qilgan. Bular orasida ibtidoiy odam tabiat hodisalarini anglashga intilishi natijasida yuzaga kelgan miflar yetakchi mavqega ega. Chunki, miflar o'sha davrdagi ijtimoiy ongning asosiy shakli edi. Dunyoning, inson va boshqa jonzotlarning paydo bo'lishi, hayot va o'lim sirlari, tabiat hodisalarining sodir bo'lishi kabi inson bilishga qiziqqan masalalar miflarda o'z ifodasini topgan.

Mifik ijodiyot ongsiz, muallifning o'zi anglab – anglamay amalga oshirgan badiiy ijodning boshlanish bosqichidir. Shuning uchun mifga va mifik obrazlarga nisbatan badiiy uslub, badiiy ifoda kabi sof badiiy atamalarni qo'llash o'rinsiz. Biroq, miflarda aniq hissiy shaklni ko'rish mifik obrazlarga xosdir. Masalan, "Ur to'qmoq" ertagidagi Laylak obrazida mifiklik mavjud va unda tuzoqqa tushib qolganda qo'rqish hissi namoyon bo'ladi va u tilga kiradi. Aynan shu xususiyati bilan mifik asosga ega obrazlar qadimgi miflardan meros qolgan g'ayritabiiy imkoniyatlarini namoyon qilishadi. Shuning uchun bolalarga yoqadi. Chunki

bolalarga xos samimiylilik, beg'uborlik, soddalik mifik obrazlar zamiriga ham yashiringandir.

Folklor asarlarda o'z aksini topgan dunyoqarash, qadriyatlar yosh avlodni har tomonlama bilimli, ma'naviy jihatdan yetuk etib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Zero, xalq og'zaki ijodi ma'naviy taraqqiyotning asosiy tarixiy ildizlaridandir. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini ko'ramiz. Shunday ekan, xalqimizning qalb qo'ri, yuksak aql-zakovati bilan asrlar davomida yaratilib, avloddan-avlodga o'tkazib kelingan folklor namunalarini ham o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining asosiy poydevori hisoblanadi. Bu bosqichda o'qitiladigan fanlar orqali o'quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikmalari, shuningdek ta'limning keyingi bosqichlarini samarali o'zlashtirishga nisbatan motiv shakllantiriladi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida maqol, ertak, topishmoq, tez aytish janrlari orqali o'quvchilarning tafakkurini o'stirishda o'qish darslari asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. O'qish darslarini tashkil etishda DTS talablarining mohiyatini to'liq anglab yetish va ta'minlash, savod o'rgatish bosqichida o'quvchilar nutqini o'stirishga alohida ahamiyat berish, shuningdek o'quvchilarning bog'lanishli nutqlarini shakllantirish shakl va vositalarini aniqlash orqali jamiyat talablari asosidagi mustaqil fikrlovchi kadrlar tayyorlash samaradorligi oshadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi orqali o'quvchilar tafakkurini o'stirishning shakl va vositalarini belgilash ishning asosiy maqsadi qilib olindi.

Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi: Xalq og'zaki ijodi namunalari buyuk folklorshunos olimlar H.Zaripov, T.Mirzayev, M.Jo'rayev, K. Imomov, B. Sarimsoqov, O. Safarov, O. Madayev, T. Sobitova, M. Afzalov, E. Musurmonov kabi bir qancha olimlar tomonidan o'rganilib, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi va uning janrlari orqali o'quvchilar tafakkurini o'stirishning nazariy asoslarini belgilanib, ilmiy – metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tadqiqot predmeti: Boshlang'ich sinf o'qish darsliklaridagi turli janrdagi xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rgatish darslarini tashkil qilish, uni sifatli o'tkazish va bu darslarda qanday metodlardan foydalanib, o'quvchilarning tafakkurini, nutqini o'stirish masalalari tekshiriladi.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand shahridagi 14-maktabning 2- “B” sinfida o'tkazilgan ona tili va o'qish darslari jarayonidan foydalanildi.

Bitiruv ishining ilmiy ahamiyati: Mazkur bitiruv malakaviy ish boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarga ilmiy materiallar bera olishi bilan nazariy ahamiyat kasb etadi. Ish natijalari respublika oliy o'quv yurtlari pedagogika fakultetlari, pedagogika kasb-hunar kollejlarida talabalarga xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, kurs va bitiruv ishlarini tayyorlashda, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari fakultativ mashg'ulotlarda foydalanishlari mumkin.

Bitiruv ishining muhokamasi: Bitiruv ishining muhokamasi dastavval Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'tkazildi.

Bitiruv ishining tuzilishi. Bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv ishining mundarijasi. Ishning kirish qismida mavzuning dolzardligi, uning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari, ishning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqot predmeti va ob'yekti, tadqiqotning ilmiy ahamiyati hamda shakliy tuzilishi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot kirish, ikki bob, umumiy xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 82 betni tashkil etadi.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI ORQALI O'QUVCHILAR TAFAKKURINI O'STIRISHNINIG NAZARIY ASOSLARI

1.1. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish va ularda DTS talablari

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi bo'lmaydi. O'qish faoliyati boshlang'ich sinflarda barcha fanlarda amalga oshiriladi, lekin o'qishga o'rgatish o'qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda ularning umumiy rivojlanishini, psixologiyasini hisobga olish zarur.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan ona tili, o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga; o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish; bolaning ona - Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

O'qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'lim - tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

Shu maqsadda «O'qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi.

Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Umuman, «O'qish kitobi» darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

Amaldagi «O'qish kitobi» darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning *didaktik maqsadi* hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida

ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va „Ona tili“ o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan *didaktik vazifalar* quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.

2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmash kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan

boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

O'qish darslarida qo'llaniladigan metodlar

„Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: *Izohli o'qish nima?*

Izohli o'qishga XIX asrning 60—70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni „ongli, tushunib, o'ylab o'qishga“ o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni „Izohli o'qish“ deb nomlaydi.

Izohli o'qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida bilim badiiy asar

tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o'quvchilarning oldin bilimlarni o'zlashtirishiga, so'ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Demak, *izohli o'qish* deb o'ylashga, his qilishga, asarni to'liq idrok qilishga, o'qilganning mazmunini o'zlashtirishga olib keladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani anglashni ta'minlaydi.

Izohli o'qish quyidagi tamoyillarga to'liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo'ladi:

1. O'qishni hayot bilan bog'liq holda tashkil etish.
2. O'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.
3. O'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqozo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o'qishga yaqin bo'lgan metodlardan biri *ijodiy o'qishdir*. Atoqli metodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:

- a) o'qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o'qishi hamda o'quvchilarning asarni to'g'ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta'minlash maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi;

b) o'qilgan asardan o'quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo'lgan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy xususiyatlari sari yo'naltiradigan suhbat uyushtirish yoki o'qilgan asardan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;

d) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi.

Ko'rinadiki, ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli o'laroq, to'g'ridan-to'g'ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan, 4-sinfda A.Oripovning „Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi" asarini ijodiy o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g'oyaviy niyatidan kelib chiqib Vatanimiz hudud-laridagi aholining yashash tarzi bilan bog'liq milliy xususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. 2-sinfda „O'tinchi yigit", 3-sinfda O'tkir Hoshimovning „Xazonchinak", 4-sinfda S. Anorboyevning „Qo'rqqoq" asarlarini ham ijodiy o'qish metodi asosida o'qitish ijobiy samaralar beradi.

Ifodali o'qish. Boshlang'ich ta'lim tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning mu-vaffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq.

Ifodali o'qish va o'zaro nutqiy faoliyat jarayonida bolalarning adabiy talaffuz me'yorlari shakllanadi. O'quvchilar nutqining faollashuvi nutqning grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash va to'g'ri talaffuz etish bolalar nutqining ravon ifodali bo'lishiga yordam beradi. Ifodali o'qishga o'rgatishda quyidagilarga e'tibor berilishi kerak:

a) nafasdan to'g'ri foydalana olish;

b) adabiy til talaffuz normalarini yaxshi bilish;

d) so'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri, aniq talaffuz etish.

Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Nasriy asarlarni ifodali o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, 4-sinfda X.To'xtaboyevning „Xatosini tushungan bola" (8.121) hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo'lganligi, maqtanchoqlikning illat ekanligi to'g'risida tushuncha beriladi.

Ifodali o'qish oldiga qo'yilgan bu talab M.Abdurashidxonovning „Har kim ekanin o'rar"(8.31), Sh.Sa'dullaning „Laqma it"(8.78) she'riy hikoyalarini o'qishga ham xosdir.

Badiiy o'qish. Badiiy o'qish ifodali o'qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so'z san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o'quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab yetilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o'qishga tayyorgarlik ko'rishda aktyorlarning audio-video tasmlarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Badiiy o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan biri tanlab o'qishdir. Masalan, 3-sinfda X.To'xtaboyevning „Hassa"(12.181) hikoyasi bilan tanishish jarayonida Qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki S. Anorboyevning „Bahs" (12.192) hikoyasidagi bolalarning bahslashish epizodi yuzasidan o'qituvchi topshirig'iga ko'ra mazkur o'rinlarni tanlab qayta o'qilishi natijasida ushbu asarlarning badiiy-estetik qimmatini chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o'quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo'llaniladigan usuldir.

O'qish darslarida *reproduktiv metod* keng qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi dastlabki darslarda o'zi asar matnini qismlarga bo'ladi, yozuvchi yoki

shoirning aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko'rsatadi, o'quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni ochib, o'quvchilarga ko'maklashadi. Bularning bari o'quvchilar uchun bir ko'rsatma vazifasini o'taydi. Shundan so'ng o'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmalari yordamida yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni o'zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan „Aqliy hujum“, „Tarmoqlash“, „Guruhlar bilan ishlash“, „Blis texnologiyasi“ kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo'llash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

O'qish malakalari va ularni takomillashtirish usullari

Dastur talablarini to'liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, o'qish ko'nikmalarini to'g'ri va puxta egallash va takomillashtirib borish zarur. O'qish ko'nikmalari savod o'rgatish jarayonida shakllanadi, o'qitishning keyingi bosqichlarida takomillashadi

O'qish malakalari deganda badiiy asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodaii o'qish tushuniladi. O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi.

O'qish malakasining sifatlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning asosi ongli o'qish hisoblanadi. O'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qisa-yu, anglab o'qimasa yoki uning tez o'qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to'g'ri o'qisa-yu, o'ta sekin o'qisa, nutq birliklari orasida to'xtamlarga e'tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi, to'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

O'qish malakalarini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O'qish faoliyatning asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan

rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini o'stirish va takomillashtirish ustida tizimli va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi.

O'qish malakasini egallash ancha murakkab bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Ruhshunos olim T.G.Yegorov o'zining „Ocherki psixologii obucheni detey chteniyu" nomli asarida o'qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: *analitik. bosqich, sintetik bosqich va avtomatlashgan bosqich*. Analitik bosqich savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi, bunda so'zni bo'g'in-harf tomonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. Sintetik bosqich uchun so'zni sidiq'a o'qish xarakterlidir; bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'qish so'z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O'quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingi yillarda o'qish avtomatlasha boradi.

O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsin.

To'g'ri o'qish. To'g'ri o'qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qish tushuniladi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay, boshqa tovushni qo'shmay, harflar o'rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi. M.Odilova va T.Ashrapovalar „Adabiy talaffuz me'yorlariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir", — deb ta'kidlaydilar. Rus metodisti Yakovleva to'g'ri o'qishga quyidagicha ta'rif bergan: „To'g'ri o'qish — bu materialning tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir". Demak, to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy - orfoepik me'yorlar asosida o'qishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, o'quvchining so'z boyligiga, ya'ni so'zning leksik ma'nosini qanchalik bilishiga hamda so'zning bo'g'in va morfemik

tarkibiga bog'liq. O'quvchilar ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra xatoga yo'l qo'yadilar:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun bola so'zning oldin tovush tomonini ko'radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So'zning ma'nosini esa e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'z ko'p bo'g'inli bo'lib, bola uni oldin eshitmagan bo'lsa, xatoga yo'l qo'yadi.

3. So'zning ma'nosini bilmaslik tufayli xatoga yo'l qo'yadi.

4. Tez o'qiymen deb xatoga yo'l qo'yadi.

5. To'g'ri o'qish yorug'likka va yorug'likning tushishiga ham bog'liq.

6. Undosh tovush so'zning o'rtasida va oxirida kelgan yopiq bo'g'inli so'zlarni o'qishda qiynaladilar.

Xato o'qishning oldini olish uchun quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Matnni o'qitishdan oldin undagi o'qilishi qiyin so'z, birikma va gaplarni aniqlash va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab so'zlarni bo'g'inlab o'qilishini mashq qildirish.

2. Matnni o'qishdan oldin uning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan so'zlarning lug'aviy ma'nosini tushuntirish. So'z ma'nosini izohlash usullarini aniqlash.

3. Vazifalarni aniq va tushunarli qilib berish.

4. Matnni diqqat-e'tibor bilan o'qishlari uchun sharoit yaratish.

5. Oldin ichda o'qitish, so'ng ovoz chiqarib o'qitish.

6. O'qitishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni matnni oson, o'rtacha qiyinlikda va qiyin o'qiladigan o'rinlarini belgilab olib, unga kuchi yetadigan o'quvchilarga oldindan taqsimlab berish.

7. O'quvchilarning o'qishini muntazam tekshirib turish.

8. Xatoning xarakteriga qarab, uni metodik tomondan to'g'ri tuzatish yo'lini aniqlash.

9. O'quvchilarni xato qilish mumkin bo'lgan o'rindan ogohlantirib turish.

10. Xatcho'pdan foydalanish.

11.Xato o'qish o'quvchining shaxsiy ko'ruv sezgisiga bog'liq bo'lsa, bu jihatni ham hisobga olish. (16.76)

O'qituvchining tuzilishi murakkab so'zlarni oldindan xattaxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozib qo'yib, o'quvchilarga ovoz chiqarib birgalikda o'qitishi yaxshi natija beradi.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xato ikki xil yo'l bilan tuzatiladi:

1. O'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qisa, uni o'qishdan to'xtatmasdan xatoni to'g'rilash mumkin.

2. Xato o'qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matni yuzasidan savol berilsa, o'quvchi e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi.

Tez o'qish. Tez o'qish me'yoriy tezlikda o'qish bo'lib, bunda o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borishi lozim. O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish *tez o'qish* deyiladi.

O'qish sifatlarini yaxshi o'zlashtirgan holda o'quvchilarning o'qish sur'ati bir-biridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og'zaki nutq tempiga to'g'ri keladigan o'qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o'ta tez ham, o'ta sekin o'qish ham matn mazmunini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar soni bilan belgilanadi. 2005-yilda e'lon qilingan o'qish dasturida 1-sinfning II yarim yilligida o'qish sur'ati 20-25 so'z (notanish matnni o'qish tezligi ham 20-25 so'z); o'quv yili oxirida 25—30 so'z; 2-sinfning I yarim yilligida matnni o'qish tezligi 30—35 so'z; II yarim yilligida 40—50 so'z; 3-sinfning I yarim yilligida 60—70 so'z; II yarim yilligida 70—80 so'z; 4-sinfning I yarim yilligida ichda ovozsiz 110—130 so'z, ovozli o'qishda 90—100 so'z deb belgilangan.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir daqiqada bola 250 so'zli matnni o'qisa, undagi 200 ta so'zni eslab qolar ekan. Agar harflab, bo'g'inlab o'qisa, uning

diqqat markazida so'z emas, bo'g'in bo'ladi. Natijada u so'zlarni eslab qola olmaydi. Bu 4-sinf o'quvchilarining o'qish tezligiga tatbiq etilsa, 125 so'zdan 100 so'zni eslab qoladi. Bu esa yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkonini beradi. 4-sinfda bir daqiqada 170—180 ta so'z o'qiydigan o'quvchilar ham bor.

O'qish tezligi to'rt yil davomida to'g'ri va ongli o'qish bilan bog'liq holda asta ortib boradi. O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi o'qiladigan materialning xarakterini, ya'ni g'oyaviy-mavzuviy murakkabligini, so'z va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay darajada ishlatilishini, o'qishning to'g'ri va ongli bo'lishini hisobga oladi. O'quvchilarning o'qish tezligi har xil bo'ladi, albatta. O'qituvchining vazifasi barcha o'quvchilarning o'qish tezligini, iloji boricha bir xillikka keltirishdan iborat. O'qish sur'atini oshirishda tez aytishlarni, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o'qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi.

Ongli o'qish. Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qish o'qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o'qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olishdir. Ongli o'qish o'z navbatida, o'quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so'zning leksik ma'nosini, gapda so'zlarning bog'lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog'liq. Hozirda ongli o'qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma'noda: birinchidan, o'qish jarayonini egallashga nisbatan o'qish texnikasi ma'nosida, ikkinchidan, keng ma'nodagi o'qishga nisbatan o'qish sifatlaridan biri ma'nosida qo'llanadi.

Matnni ongli o'qish uchun o'quvchilar to'g'ri, me'yorida o'qishni egallagan bo'lishlari va o'qish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. O'quvchilar matnni ongli o'qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Ongli o'qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O'qituvchi ongli o'qishni matnni ifodali o'qishga (agar ovoz chiqarib o'qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning

to'g'riligiga, asar voqealari va qahramonlarning xatti-harakatiga bildirgan munosabatiga qarab baholaydi. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga aynan o'xshamaydigan o'qish sifatlaridir.

Ifodali o'qish. Ifodali o'qish intonatsiya - ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. „Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy shaklidir“, deb ta'kidlaydi metodist olimi M.A.Ribnikova. Demak, „Ifodali o'qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar g'oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir .

Ifodali o'qish turlari quyidagilar:

1. Yakka o'qish.
2. Rollarga bo'lib o'qish.
3. Jo'r bo'lib o'qish.
1. Yakka o'qishning yuqori bosqichi baralla o'qishdir.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a....
Kun-tuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

(A. Navoiy)

2. Rollarga bo'lib o'qish.

“Qish” X. Eshonqulov.

- 1-o'quvchi: Hovlida zag'cha,

Qanot qoqadi.

- 2-o'quvchi: Oppoq kiyimda,

O'rmon -u tog', yer.

Hamma o'quvchi: Dag', dag', dag'....

Rollarga bo'lib o'qish uchun “Bo'g'irsoq” ertagini ham o'qisak bo'ladi.

3. Jo'r bo'lib o'qishning ahamiyati katta. Bunda o'quvchilar bir xil sur'at va ohang bilan o'qishni o'rganadilar.

O'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida o'quvchilar nutq faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan ko'nikmalari, matn va kitob ustida ishlash, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Intonatsiya (ohang). Intonatsiya og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligining yig'indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta'sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g'oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to'g'ri artikulatsiyasi va aniq diksiya (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash.

Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O'quvchining har qanday og'zaki hikoyasi ifodali bo'lishi zarur.

Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qish (gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi. Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish, unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g'oyasini belgilash, ya'ni asarning g'oyaviy-mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qaysi joyida to'xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg'uning o'rnini, o'qish tempini belgilab olish.

3. O'qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o'qish.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

O'qish turlari

Boshlang'ich ta'limda o'qishning uch turidan foydalaniladi:

1. Ovozli o'qish.
2. Ichda o'qish.
3. Shivirlab o'qish. (m.79-b)

Ovozli o'qish ovozga asoslangan o'qish bo'lib, undan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi.

Ovozli o'qishning yakka, jo'r va rollarga bo'lib o'qish usullari mavjud. Yod aytish ham ovozli o'qishning bir shaklidir.

Ichda o'qish ham tovushga asoslangan, lekin unda ovozsiz o'qiladi.

Shivirlab o'qish yarim ovoz bilan o'qishdir. Malakali kitobxon o'qishning har uch turini bilishi zarur.

Ovozli o'qishning ham, ovozsiz ichda o'qishning ham, shivirlab o'qishning ham o'z qo'tlanish o'rne va afzalliklari hamda kamchiliklari bor. Masalan, 2-sinf o'quvchilari ichda o'qiganda kam so'z o'qiydi, so'zning ma'nolarini tushunmay qoladi, o'qiganlarining mazmunini to'liq o'zlashtira olmaydilar.

Psixologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'qishni endi o'rganayotgan o'quvchilar o'qilayotgan matnni tushunib borishlari uchun eshitish sezgisiga ham e'tibor qaratganlar. Ikkinchidan, 2-sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmalari yaxshi shakllanmagani uchun ichda o'qish jarayonida ayrim so'zlarni noto'g'ri o'qish natijasida uning ma'nosini tushunmaganlar. Shularni nazarda tutgan holda, 1-2-sinflarda ovozli va shivirlab o'qishdan foydalaniladi.

3 – 4 – sinflarda ovozli o'qish bilan birga ichda o'qishdan ham foydalaniladi. Bu sinflarda ichda o'qish ancha samarali bo'ladi, lekin bunda ichda o'qish mexanik o'qishga aylanmasligi kerak. Ichda o'qish biror maqsadga yo'naltirilishi, ya'ni quyidagicha turli topshiriqlar asosida ichda o'qitilishi lozim:

- She'rni ichingizda o'qib, ifodali o'qishga tayyorlaning.
- Ichda o'qing, ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlab, lug'at daftaringizga yozing. Lug'atdan foydalanib, ularning ma'nosini izohlashga harakat qiling.
- Hikoyani ichingizda o'qib, uni qismlarga bo'ling.
- Ichingizda o'qib, ovoz chiqarib to'g'ri o'qishga tayyorlaning.
- Ichingizda o'qing. Tabiatning ko'rinishi tasvirlangan o'rinni toping.

Bu kabi topshiriqlar sinfdan sinfga o'tgan sari murakkablashib boradi. Bunda o'quvchilarning asarni qanchalik idrok etganliklari tekshirilib borilishi zarur.

Ichda o'qish quyidagi afzalliklarga ega:

1. Bir vaqtning o'zida butun sinf o'quvchilari o'qiydi.
2. O'quvchilarda asar matni ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari takomillashadi.
3. O'qituvchi har bir o'quvchining mustaqil ishlash jarayonida o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.
4. Ichda o'qishda ongli o'qishga talab va e'tibor kuchayadi.

Ichda o'qishda o'qituvchi o'quvchilar o'qishidagi kamchiliklarni aniqlay olmaydi. Bu undan foydalanishni cheklab qo'yadi.

Ovozli o'qishning afzalliklari quyidagilar:

1. O'qituvchi o'quvchilarning xato va kamchiliklarini, o'qish ko'nikmalarini aniqlay oladi.
2. Kichik yoshdagi o'quvchilar ovoz chiqarib o'qisalar, matn mazmunini tez

tushunib oladilar.

3. Ovozli o'qishdan kitobxon estetik zavq oladi.

4. Ovozli o'qishda ifodalilikka katta e'tibor beriladi.

Ovozli o'qish o'quvchilar lug'atini boyitish va nutqini o'stirishda katta ahamiyatga ega shivirlab (yarim ovozli) o'qish darsning tashkiliy qismlarida, o'qituvchi sinf jurnali bilan mashg'ul paytda yoki o'quvchilarni darsga tayyorlash bosqichlarida o'tkaziladi.

Maktabda o'qishning bu uch turi almashtirib turiladi. 1-2-sinflarda ovozli va shivirlab (pichirlab) o'qishdan ichda o'qishga o'tilsa, 3-4-sinflarda ichda o'qishdan ovozli o'qishga o'tiladi. 3-4-sinflarda o'qish turlaridan foydalanishda chegara qo'yilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'qishning hamma turiga bir xil talab qo'yiladi, ya'ni o'qish to'g'ri bo'lishi, tez, ongli va ifodali bo'lishi zarur.

“Ta’lim to’g’risida” gi Qonun, ‘Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi’ da ta’lim sohasida olib boriladigan ishlarning mazmuni va istiqbolini belgilab berdi. Ta’limni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga doir tajribalar to’planmoqda va yaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan boshlang’ich sinflarda ham dars o’tish jarayonini takomillashtirish uchun izlanishlar olib bormoqdamiz. Shu bois o’qish darsida ayrim mavzular yuqoridagi usullarda bayon qilinsa, bu mavzu materiallari o’quvchilar tomonidan osonlikcha o’zlashtirib olinadi.

1.2. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodining nazariy asoslari

Xalq og'zaki ijodi - mehnatkash omma ijodi, xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir.

Xalq og'zaki ijodi - insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l – atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini ko'ramiz.

Og‘zaki so‘z san’ati «folklor» yoki «xalq og‘zaki poetik ijodi» atamaları bilan ifodalanadi. «Folklor» atamasi ilk bor XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846- yilda qo‘llangan bo‘lib, «folk» - xalq va «lor» - bilim, donolik, donishmandlik, ya’ni «xalq bilimi», «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» demakdir. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganuvchi fan folklorshunoslik deb ataladi.

Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og‘zaki usulda amalga oshadi. Ya’ni bunday asarlar og‘zaki ravishda ijro etilishi sababli ulaming mazmuni va shakli o‘zgarishi, unga yangi qismlar qo‘shilishi yoki biron-bir qismi tushib qolishi mumkin.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi eng qadimiy san’atlardan biri bo‘lib, u jahon xalqlari poetik ijodi taraqqiyotida alohida o‘rin egallaydi. O‘zbek folklorida turlar va janrlar quyidagicha tashkil topgan:

Epik tur - mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston va boshqalar.

Lirik tur - marosim folklorining deyarli barcha ko‘rinishlari, bolalar folklorining ko‘pgina turlari, qo‘shiqning hamma xillari, ashula va shu kabilar.

Dramatik tur - og‘zaki drama, qog‘irchoq o‘yin, askiya, xalq teatrlari kabilar.

Maxsus tur - maqol, matal, topishmoq kabilar.

Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida misqollab to‘plangan, ne-ne sinovlardan o‘tgan, insonlarga hamisha madad bo‘lib kelgan noyob xazinadir. Bizning vazifa-miz ana shu xazinani ko‘z qorachig‘idek asrash va yanada boyitish hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’limda xalq og‘zaki ijodining ertak, rivoyat, latifa, maqol, topishmoq, tez aytish, sanamalar, xalq qo‘shiqlaridan namunalar beriladi.

Ertak. Ertaklar dunyodagi boshqa xalqlar og‘zaki ijodida keng tarqalganidek, o‘zbeklarda ham eng ommaviy janrlardan biri sifatida turli viloyatlarimizda yashaydigan yurtdoshlarimiz tomonidan sevib aytib kelingan. Ularning juda qadim zamonlardan yaratilganini «ertak» atamasining Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1074 – yilda yozilgan «Devonu lug‘oti-t-turk» asarida «etuk» tarzda qo‘llanganidan bilsa bo‘ladi: «Etuk – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan» .

Bu janrning qadimiyligini qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa bir qator turkiy xalqlar oilasiga kiruvchi millatlar og'zaki ijodida ham ertak deb atalishi, isbotlashi mumkin. Shuningdek, miflar, afsona, rivoyatlar haqida fikr yuritganimizda, diffuzion jarayonning keyingi bosqichi ertak ekanligini eslatib o'tganmiz. Demak, agar xalqimiz og'zaki ijodini qadimgi qadriyatlar sifatida e'zozlasak, bu xazinaning noyob durdonasi sifatida hech ikkilanmay ertaklarni qayd etish mumkin ekan. Ertak terminini O'zbekistondagi hamma viloyatlar aholisi juda yaxshi bilsa-da, bu janrga oid asarlar turlicha hududlarda turlicha atalgan. Xususan, toshkentliklar «cho'pchak», farg'onaliklar «matal», xorazmliklar «varsaqi», o'zbek va tojik tilida so'zlashuvchi vatandoshlarimiz «ushuk» tarzda atashgan. Bulardan tashqari jonli so'zlashuvda ba'zan *afsona, o'tirik, tatal atamalari* ham uchraydi.

Xalq ertaklarining badiiy ijod namunasi sifatidagi janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik jinsi (turi)ga mansub.
2. Ertaklar, asosan, nasrda yaratiladi. Faqat ayrim asarlardagina («Yoriltosh», «Tohir va Zuhra» va b.) qo'shiqni eslatuvchi she'riy parchalar uchraydi.
3. «Bir bor ekan, bir yo'q ekan» boshlamasi va «murod-maqsadiga etibdi» yakunlanmasi ertaklarning an'anaviy belgisi hisoblanadi.
4. Xayoliy-fantastik tasvir ertaklar syujetida qo'llanadigan ustuvor usuldir.
5. Ertaklarning umumiy mazmunida IMF formulasi doimiy takrorlanadi. Har bir ertak I – initial – boshlanma; M – medial – asosiy qism; F – final – yakunlanmadan iborat bo'ladi. (11.61-62). Ertaklarning miflardan ijod usulini o'zlashtirganligi haqida fikr yuritgan edik. Bu an'ana o'zbek xalq ertaklarining umumiy mazmunida bugungi kungacha saqlanib kelmoqda. Ehtimol, bu janr asarlarining yashovchanligini ta'minlagan asosiy xususiyat ham shundan iboratdir. Xalq o'z ertaklarida chegarasiz ravishda xayolot olamini kezib chiqadi. Ya'ni ularda xalq fantaziyasi mahsuli bo'lgan chegara bilmas uydirmalar, transfiguratsiya (bir shakldan ikkinchi shaklga o'tish) holatlari tinglovchini o'ziga jalb etadi. Vaholanki, ertak boshlanmalaridagi “Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir och ekan, bir to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan...” (olimlar boshlanmadagi

tarkibiy “ekan” qismlarning 20 ga yaqin bo‘lishini belgilashgan) ibora va jumlar mutaxassislar fikricha, ertakda bayon qilingan voqealarning aslida umuman bo‘lmagani va ro‘y berishi mumkin emasligini anglatar ekan. Haqiqatan ham, dostonlarda biz bu mazmundagi boshlanma – zachinlarni uchratmaymiz. Shu bois odatga ko‘ra dostonlardagi voqealar hayotda bo‘lgan deb qabul qilinadi. Ertakda esa tamom boshqa holat hukm suradi. Chunki bu janr boshlanmasidagi “bor-yo‘q”, “och-to‘q” so‘zlarining o‘zi hikoya qilinayotgan voqeaga nisbatan shubha uyg‘otadi. Ammo masalaning qiziq tomoni shundaki, voqea boshlanmasdan atayin shubha uyg‘otishga bo‘lgan harakat tinglovchiga deyarli ta’sir qilmaydi. Biz ertaklardagi uydirmalarga to‘la ishonamiz, asar qahramonlarining taqdiriga befarq qaray olmaymiz, sevikli malika yoki cho‘pon muvaffaqiyat qozonsa, bu g‘alaba o‘zimiznikidek quvonaveramiz. Xalq ertaklari mazmunida ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy hayotning hamma masalalari o‘z ifodasini topadi, desak xato bo‘lmaydi. Shuning uchun ham er yuzining hamma mintaqalarida yashaydigan xalqlarda umumiy hayot tarzi yaqin bo‘lgani sabab bir xil mazmundagi ertaklar ko‘p uchraydi. Fransuz, ingliz, xitoy, yapon ertaklari aksariyat hollarda o‘zbeklar ijodidagi bu janrdagi asarlar mazmunini takrorlaydi. Faqat fransuzlarda pishloq, uzum; xitoylarda guruch; o‘zbeklarda tuxum yoki qatiq kabi narsalar farqi seziladi. Agar boshqa xalqlardagi ertaklar matnida shu yoki boshqa narsalar nomini milliy predmetlar bilan alishtirsak, ko‘pincha, boshqa xalqlar namunalari ham o‘zbekniki bo‘ladi-qoladi. Bu holat sababini avval qayd qilganimizdek, bir xalqdan ikkinchi xalqning o‘zlashtirishi deb emas, umumiy hayot tarzining yaqinligi bilan asoslash ma’qulroqdir. Masalan, yoqut xalqidagi “Bekinmachoq”, ruslardagi “O‘n ikki oy” (“Morozbobo”) va o‘zbekdagi “Zumrad va Qimmat” ertaklarida voqea tugunidan tortib echimigacha bir xil yo‘nalishda kechadi. Ammo bu asarlarning har biri bevosita o‘sha xalq ijodi namunasi deb tan olinadi. O‘zbek folklorshunosligi rivojiga munosib hissa qo‘shgan Mansur Afzalov o‘zbek xalq ertaklari yuzasidan ilmiy ish yozar ekan, bu janrning o‘rganilishi tarixiga alohida to‘xtagan. Olimning ma’lumot berishicha, o‘zbek ertaklariga bo‘lgan ilmiy e’tibor XIX asr ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu o‘rinda A.A.Kushakevich, N.Lapunova, A.Vasilev,

A.N.Samoylovich, V.V.Bartold kabi bir qator ziyoli va taniqli olimlar ismlari keltirilgan. Shuningdek, «Farhod va Shirin», «Shirin qiz», «Samarqand», «Shahzoda Nazar Muhammad va Malika Nazarbibi», «Annamurod bova haqida», «Erni er qilgan xotin», «Donishmand Cho'pon» kabi afsona va ertaklar matnlarining yozib olinishi, dastlabki tadqiq qilish jarayoni haqida ma'lumotlar qayd etilgan. O'zbek ertaklari o'z vaqtida Miyon Buzruk Solihov, Hodi Zarifov, Xolid Rasul, Buyuk Karimov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Keyinchalik bu faoliyatni K.Imomov, T.G'oziboev, G'.Jalolov, X.Egamov, H.Razzoqov, J.Yusupov kabi olimlar davom ettirishdi. Xalq tabiatan hamisha adolatni yoqlaydi, himoya qiladi. Ertaklar yaratilish jihatdan miflarga asoslansa, mavzuning tanlanishi, obrazlar tizimidagi yo'nalishlar, hayot muammolarini aks ettirishda adolat mezoniga bo'ysunadi. Qalloblik, vijdotsizlik, xiyonat, yolg'onchilik, ma'naviy nopoklik kabi illatlar doimiy ravishda qoralanadi. Mardlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, iymonlilik, poklik fazilatlari hurmat bilan tilga olinadi. Voqeaning tuguni ham hamisha ana shu fazilatlarni ulug'lash bilan echimini topadi. Mohir xalq farzandlari tomonidan o'ylab topilgan fantastik hodisalar, uydirma lavhalar, sehrli narsa-buyumlar, jodular, g'ayritabiiy hodisalar esa tom ma'noda yovuzlikning qoralanishi, ezgulikning maqtalishida poetik xomashyo sifatida foydalaniladi. Xalq ertaklarining mazmun va hayotdagi voqealarni tasvirlash yo'nalishiga ko'ra uch turi mavjudligi M.Afzalov, K.Imomov tomonidan ko'rsatib o'tilgan. Bu tasnifga ko'ra ertaklar sehrli va hayotiy turlarga bo'linadi. Ammo ayrim adabiyotlarda hayvonlar haqidagi, sehrli, maishiy turlarga bo'linadi. Mansur Afzalov tasnifida yana hayvonlar, sehrli-fantastik, hayotiy-satirik turlar ham ko'rsatilgan. Umumiy tahlilning oson va tushunarli bo'lishi uchun biz ana shu tasnifga binoan ish ko'rishni ma'qul topdik. Ertaklarni tasnif qilish qanchalar murakkab ekanligini ularni tahlil qilish jarayonida o'zingiz anglab etasiz. Ertak aytuvchilarni qadimda «ertakchi», «matalchi» deb atashgan. Ertaklarning xarakterli xususiyati shundaki, ularda fantaziyaga keng o'rin beriladi, mubolag'a, giperbola kabi tasviriy vositalardan foydalaniladi. E'tibor bersangiz, ertaklarda ijobiy qahramon albatta yovuzlik, adolatsizlik, zulm ustidan g'alaba qozonadi, yaxshilik

tantana qiladi. Chunki ertak qahramonlari xalq orzu-umidlarini, manfaatini ifoda laydilar.

Ertaklar azaldan xalqni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, rostgo'ylik va halollik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik va kamtarlik ruhida tarbiyalab kelgan.

Ertaklar turli mavzularda bo'lishi mumkin. Ular shartli ravishda *hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga* bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar. Hayvonlar haqidagi ertaklarni ayrim mutaxassislar sehrli-fantastik ertaklar turkumiga mansub hisoblaydilar. Xususan, K.Imomov, G'.Jalolov o'zlarining tadqiqotlarida hayvonlar ishtirok etadigan ertaklarni sehrli ertaklar qatorida tahlil qiladilar. Bu asarlarda hayvonlar ishtiroki, ularning asar qahramonlari bilan suhbatda bo'lishlari olimlarning sehrli ertaklar deb atashlariga asos beradi. Biz bu atamani shartli ravishda qabul qilamiz, chunki sehrli ertaklarning hayvonlar ishtirok etmagan mazmundagilari ham etarli bo'lib, ularni alohida tahlil qilish mumkin. M.Afzalov hayvonlar haqidagi ertaklarning o'zida turli farqlanuvchi asarlar borligini qayd etadi. Ularning birinchi turiga mifologik mazmun ifodalanganlarini qo'shadi. Ma'lumki, qadim zamonlar totemizm va fetishizm tushunchasi nuqtai nazaridan ajdodlarimiz har bir narsa-predmetni, shu jumladan, hayvonlarni o'zlariga homiy deb bilganlar. Ular tasavvurida odamlar totem va fetish yordamida muayyan yutuqlarga erishishlari mumkin hisoblangan. Bu haqda miqlar haqida to'xtaganimizda ham ma'lumot berganmiz. O'zbek ajdodlari bo'ri, ilon, ot va boshqa bir qator hayvonlarni o'zlariga homiylik qilishini ruhan his etganlar. Ertaklarning dastlabki namunalarida aynan ana shu dunyoqarash asosida asarlar yaratganlar. «Bo'ri», «Cho'loq bo'ri», «Ilon og'a», «Ayiqlar polvon» kabi ertaklar shular jumlasidandir. «Quyosh erining pahlavoni» ertagida ona ayiq Rustamni parvarish qiladi, uning hayotida homiy sifatida o'rin egallaydi: Rustam va otasi – yamoqchi cholg'a qo'lidan kelgancha yaxshiliklar qilib dushmandan asraydi. Mansur Afzalov «Ilon og'a» ertagini alohida ajratib ko'rsatadi: «Ilon – kuyov niqobini olsa, insonga

aylanadi. Qiz ilonning niqobini kuydirib yuborsa, u kaptar bo'lib uchib ketadi. Ilon og'aning onasi va xolasi yalmog'iz kampir bo'ladi. Ular Ilon og'a bilan qizga ko'p to'sqinlik qiladilar. Lekin Ilon og'a va qiz o'z tadbirlari orqali yalmog'iz kampirni engib, murod-maqсадlariga etadilar". Xususan, «Cho'loq bo'ri» ertagida podshohning kenja o'g'li afsonaviy tilla qushni olib kelish uchun safarga chiqqanida cho'loq bo'riga duch keladi. Unga non beradi. Bo'ri undan yordamini ayamaydi. Qush uchun safarga chiqqan bola bir qiz va ot bilan uyiga qaytadi. Yo'lda akalarining holidan xabar oladi. Ammo akalari uning ko'zlarini o'yib, chohga tashlaydilar. Ertak oxirida kenja o'g'il baribir murod-maqсадiga etishadi, akalari jazolanadilar. Bu turdagi ertaklarning mohiyati totem hisoblangan hayvon va qushlarning asar qahramoniga o'zlarining sehrli fazilatlari vositasida yordam berish bilan izohlanadi. Shu mazmundagi yana bir ertak «Kenja botir» deb ataladi. Unda homiy sifatida ot qatnashadi. Hayvonlar haqidagi ertaklarning yana bir turida majoziy fikr yuritish usuli ustuvordir. Bunday ertaklar farzandlarga pand-nasihat, tarbiya berish maqsadida yaratilgan. Har qanday vaziyatda birga bo'lish, do'stlikni qadrlash kerakligi ertakning bosh g'oyalari hisoblanadi. Inson bir-biriga yaxshilik qilsa, albatta, o'zining orzusiga etishadi, degan falsafa asosida to'qima voqealar, qiziq-qiziq obrazlar o'ylab topiladi. «Susambil» ertagi ana shunday asarlar qatoridan o'rin olgan. Ho'kiz, eshak afsonaviy Susambil shahrida erkin, to'kin hayot kechirmoqchi bo'ladilar. Ularga xo'roz, kalamush, arilar ergashadilar. Uzoq qiyinchilikdan so'ng maqsadga etadilar. Ammo bu erda ularga bo'rilar hujum qiladi. Shunda ho'kiz ularni suzadi. Kalamushlar er kovlab, bo'rilar ni go'rga tiqmoqchidek qo'rqitadilar. Arilar chaqadi. Xo'roz qichqirib, eshak hangrab bo'rilar ni bezovta qiladi. Oxir-oqibat bo'rilar ahil birodarlardan zo'rg'a qochib qutuladilar. O'z galalariga borib vahima soladilar. Natijada, butun bo'rilar Susambildan qochishga majbur bo'ladilar. Hayvonlar esa to'kin hayot kechiradilar. Bu ertakda baxtga erishish oson emas, ammo erishilgan baxtni saqlab qolish undan ham qiyinroqdir, degan dono fikr hayvonlar misolida majoziy tarzda o'z ifodasini topgan. «Ovchi, Ko'kcha va Dono» ertagida ham kaptar, sichqon, qarg'a, toshbaqa, kiyikning do'stligi ularni bir necha marta o'limdan qutqaradi. Faqat

samimiy, beg‘araz do‘stlik oqibatida kaptarlar to‘rdan, kiyik tuzoqdan, toshbaqa ovchi solgan xaltadan qutuladi. Bu fikrlar zamirida ham faqat do‘stlikni qadrlash g‘oyasi o‘z ifodasini topgan. Hayvonlar haqidagi ertaklarning keyingi turi ko‘proq ma‘rifiy maqsadni amalga oshirish uchun yaratilgan. Otalar farzandlariga o‘z hayot tajribalaridan saboq berishlari kerak. Farzand o‘z oilasida katta bo‘layotgani sabab atrofida yashayotgan hayvonlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lmaydilar. To‘g‘ri, ular qo‘y, ot, echki, tovuq, eshakni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rganlar, muayyan tasavvurga egalar. Ammo bo‘ri, ayiq, ilon, tulki, burgutni ular bilmaydilar. Shuning uchun ertaklarda ularning hayot kechirish tarzi yuzasidan muayyan ma‘lumotlarni berish lozim bo‘ladi. Bu tasnifdagi hayvonlar haqidagi ertaklarda bo‘rining vahshiyliги, odamga hujum qilishi mumkinligi, tulkining ayyorligi, laylak tumshug‘ining uzunligi, kiyik dumining to‘mtoqligi izohlangan asarlar vujudga kelgan. Darvoqe, ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, bunday ertaklarning asosiy qahramoni sifatida, ko‘pincha, echki ishtirok etadi. Bir qator ertaklarda nima uchun qarg‘a qora, kiyik dumi to‘mtoq, musicha ko‘kragi nima uchun chakichlanganga o‘xshaydi kabi savollarga javob beriladi. Ular qatorida «Bo‘ri bilan tulki», «Kiyik bilan kadi», «Xo‘roz bilan tulki», «Laylak bilan tulki», «Buzoq, echki va qo‘zi» kabi namunalar bor. Masalan, «Kiyik bilan kadi» ertagida «Kadi kiyikni qo‘rqitadi. Kiyik kadidan o‘ch olmoqchi bo‘ladi va uni dumiga bog‘lab cho‘ktiradi. Kadi kiyikni suv tagiga tortadi. Kiyik qirg‘oqqa intiladi. Oxiri kiyikning dumi uzilib to‘mtoq bo‘lib qoladi. Kiyik dumi kaltaligini masxara qilgan barcha kiyiklarning dumini bir-biriga bog‘lab qo‘yadi-da, «mergan kelyapti», - deb qochadi. Dumi bog‘langan kiyiklar ham har tomonga qochadilar va dumlaridan ayriladilar. Shunday qilib, kiyiklarning dumi to‘mtoq bo‘lib qolgan ekan» Ertaklarda bolalarning yosh xususiyatlari alohida e‘tiborga olinadi. Voqealar qiziqarli, sodda, ixcham, izchil, qisqa bayon etilishi talab qilinadi. Ba‘zan bu maqsad kulgili mazmunga ega holda bayon etiladi. Tulki bilan bo‘riga bag‘ishlangan ertaklarning birida go‘sht tishlab ketayotgan bo‘ridan tulki: «Bo‘rivoy, qaerdan kelayapsan?» - deb so‘raydi. Bo‘ri: «Popdan», - deb javob beradi va og‘zidagi go‘shtini tushirib yuboradi. Ikkinchi marta xuddi shunday vaziyatda tulki yana so‘raydi. SHunda

bo'ri: «G'ijduvondan», - deb javob beradi. Kulgili vaziyat ifodalangan bunday ertaklarda, bir tomondan, shunchaki hazil nazarda tutilgandek tuyiladi. Ammo ularning zaminida odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati aks etadi. Hayvonlar haqidagi ertaklarning yuqorida qayd etilgan uch turidan tashqari qahramonlarning ishtirokiga ko'ra ham muayyan turlari bor. Xususan, faqat hayvonlarga ishtirok etganlari, hayvonlar bilan odamlar ishtirok etgani va h.z. Xullas, hayvonlar haqidagi ertaklar mazkur janr shakllanishidagi dastlabki namunalarni tashkil etgan. Ularda qadimgi ajdodlarimizning mifik dunyoqarashi o'z ifodasini topgan. Keyingi namunalarda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy, maishiy munosabatlar majoziy usulda o'z ifodasini topgan. Ularda, asosan, ko'proq tarbiyaviy maqsadlar nazarda tutilgan. Va, nihoyat, bu turdagi ertaklarning nisbatan keyin yaratilgan namunalarda ma'rifiy ma'lumot berish maqsadi amalga oshirilgan.

Sehrli ertaklar ham bolalar sevib va qiziqib o'qiydigan fantastik hikoyalardir. Ularda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan, asar qahramonlari har narsa qo'lidan keladigan mo'jizakor kimsalar («Yalmog'iz», «Devbachcha») yoki jonlantirilgan narsa yoxud hayvonlar («Ur to'qmoq», «Ochil dasturxon», «Semurg», «Susambil» ertaklari)dan iborat. Bu ertaklarning maqsadi ham turli g'ayriinsoniy illatlar: yolg'onchilik, johillik, ikkiyuzlamachilikni la'natlash, aql-farosatlilik, tadbirkorlik, jasurlik, rahmdillik, ahillik kabi chin insoniy xislatlarni targ'ib qilishdir. Sehrli ertaklar. Jahon xalqlari ertaklaridagi umumiy o'xshashlik haqida fikr borganida, ko'proq sehrli ertaklar nazarda tutiladi. Inson qadim zamonlarda ham xayol surgan, o'zicha turli-tuman g'aroyib voqealarni o'ylab topgan. Aslida, miflarning vujudga kelishida ham ajdodlarimizdagi aynan ana shu xususiyat etakchi ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik fantastik voqealar totem, fetish obrazlardan uchar gilamlarga, sehrli dasturxonlarga, oltin qaynaydigan xumlarga, istagan odamni istagan paytda ko'rish mumkin bo'lgan jomlarga, oynalarga o'tgan. Bunday voqealarni o'ylab topish ajdodlarimiz orzulari, havaslari bilan asoslangan. Yo'l azobidan aziyat chekkan inson uchar gilam, ot, manzilga ko'z ochishda etkazgan bo'rini o'ylab topgan. Oziq-ovqat topishga qiynalgan odam esa ochil dasturxonning ijodkoriga aylangan. Natijada, sehrli

ertaklardagi voqea-hodisalar haqiqiy ma'noda ajdodlarimiz orzu-havaslarining majmuasiga aylangan. Ilm-fan taraqqiyotida katta kashfiyotlar, odatda, olim xayolida paydo bo'lgan reja – gipotezadan boshlanadi. Gipoteza asta-sekin rivojlanadi va hayotga tatbiq etilishining loyihasi shakllanadi. Olim ana shu loyihaning ilmiy zaminini topganidan so'ng kashfiyotning amalga oshishi uchun sharoit yaratilgan bo'ladi. Sehrli ertaklar bir jihatdan inson ongida yaratiluvchi ana shu gipotezalar yo'nalishini boshqargan, deb xulosa qilish uchun etarli asos bor. Gap shundaki, bugungi kunda oddiy hayot haqiqatiga aylangan velosipeddan tortib avtoullov, poezd, samolyotlar; telefon, telegraf, radio, televidenie, elektr chiroqlarning kashf etilishini bevosita ertaklarda aks etgan orzular bilan dalillaymiz. Uyali telefonni aytmayizmi, to'quv dastgohlari, har xil kimyoviy, fizikaviy kashfiyotlar bosqichma-bosqich tahlil etilsa, ularning hammasini biz bir oz oldinroq sehrli ertaklar voqealarida uchratganimizga amin bo'lamiz. Sehrli ertaklar bosh qahramonga nimadir (ko'pincha, farzand) etishmasligi, qahramonning etishmayotgan narsasiga ega bo'lishi, unga nimadir qilishning (gapirish, alohida bir eshikni ochish, biror narsaga qarash va h.k) taqiqlanishi, taqiqning buzilishi, kuchli raqibga duch kelish, xavfli safarga chiqish, safar yakuni, raqib bilan olishuv, murod-maqсадga etish kabi lavhalardan iborat bo'ladi. Taniqli olim V.YA.Propp yuqoridagi tartibning jahon xalqlari ijodidagi sehrli ertaklar matni tarkibini tashkil qiluvchi asosiy unsurlar ekanini chuqur ilmiy asosda misollar bilan isbotlab berdi. Yuqorida qayd etilgan mulohazalardan g'ayritabiiy mo'jizalar ro'y berishi, afsungarchilik, sehrli voqealar, bir narsaning ikkinchisiga aylanishi, bular hammasining muayyan tizim (V.YA.Propp tavsiyasi) tartibida hikoya qilinishi sehrli ertaklar xususiyatini hosil qiladi. Hamid Olimjon ifodalagan «O'zi uchar gilamlar», «O't bog'lagan qanotlar», «Beqanot uchgan otlar», «Qiz bo'lib ochilgan gul», «So'ylaguvchi devorlar», «Bola bo'p qolgan chollar» kabi tasvirlar aynan sehrli ertaklar matnlari bilan bog'liq ekani ma'lum bo'ladi. Aksariyat hollarda sehrli ertak voqeasi farzandsizlik motividan boshlanadi. Ammo tez orada asar qahramoni farzandga ega bo'ladi. Bu hodisa olma, arpa yoki biror narsa eyishdan, ba'zan o'z-o'zidan ro'yobga chiqadi. Tug'ilgan bola bilan

dastlabki tanishishdanoq uning g'ayrioddiy fazilatlar borligi ayon bo'ladi. Bu fazilat, avvalo, uning o'ta tez sur'atlar bilan katta bo'lishida ko'rinadi. Farzand voyaga yetgach esa o'zi yashayotgan muhitga ta'sir etadi va hayotda keskin o'zgarishlarga erishadi. Sehrli ertak qahramonlari o'lib qayta tirilish xususiyatiga ega ekanliklari bilan ham bizni o'ziga jalb qiladi. To'g'ri, o'lgan odamga jon ato etilishi qadimgi ajdodlarimiz dunyoqarashi ifodasi sifatida baholanadi. Ammo ayni paytda o'lgan odam ruhining kun, oy, yillar davomida o'zi yashagan xonadondan ajramasligi, turli shakl-holatlarda qarindoshlariga ko'rinib turishi sehrli ertaklarda oddiy tasvir vositalariga aylanganini ham qayd etish maqsadga muvofiqdir. Xalq ongida insonning biron yaxshiligi, albatta, taqdirlanishi lozim. Asar qahramoni semurg'ga, ayiqqa, laylakka ko'rsatgan yordami evaziga mushkullari oson bo'ladi. Uning yordamidan foydalangan hayvonlar keyinchalik sehrli imkoniyatlari bilan qahramon hamrohiga va biron olijanob maqsadni qo'lga kiritish vositasiga aylanadilar. Ayrim ertaklarda esa adolat aynan ana shu yaxshilik evaziga g'alaba qozonadi. Xususan, «Ur to'qmoq» ertagidagi chol davolagan laylak unga bir martagina lutf ko'rsatib qolmaydi. Balki o'z sehri ta'sirini oxirigacha amalga oshirib, uning qo'shnisi qilgan xiyonatni oxirigacha fosh etadi va jazolaydi. Bunday ertaklarda adolat tasodifiy emas, qonuniy ajrim ekani voqealar mohiyatiga singdirib yuboriladi. Sehrli ertaklar jozibasi, ko'pincha, asardan o'rin olgan mo'jizaviy safarlar, hayratomuz to'kinlik aks etgan lavhalar, xayol bovar qilmaydigan jodu va afsonaviy uchrashuvlar tasvirida o'z ifodasini topadi. Ertaklarda hayot shu qadar mazmunli va bebaho ehsonki, unda bo'lishi mumkin bo'lmagan hodisalar tizimining o'zi yo'q, yechimi topilmas muammo uchramaydi, degan xalq falsafasi nafas oladi. Ertakni aytish yoki maza qilib eshitish ajdodlarimizga iroda, kelajakka ishonch bag'ishlagan. Ayni paytda xalq og'zaki ijodi namunalarining tom ma'noda so'z san'ati ekanini isbotlovchi dalil sifatida ham xizmat qilgan. Millatdagi katta avlodning keyingi farzandlar uchun pand-nasihat merosiga aylangan.

Xalqimiz yaratgan xayoliy hikoyalar orasida shunday turkum ertaklar borki, ularni biz *hayotiy-maishiy ertaklar* deb ataymiz. Bunday ertaklardagi voqealarning

aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingan. «Zumrad va Qimmat», «Oygul bilan Baxtiyor», «Ziyod botir», «Tohir va Zuhra», «Ozodachehra», «Farhod va Shirin», «Malikayi Husnobod», «Uch og‘a-ini botirlar» ana shunday ertaklar sirasidan. Biz yuqorida tilga olgan hayotiy-maishiy ertaklar kishida jiddiy fikr – mulohazalar uyg‘otadigan, muayyan tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘lgan asarlardir. Maishiy ertaklar mazmun jihatdan hayvonlar, sehrli ertaklardan bevosita hayotiy voqea-hodisalar haqida hikoya qilishi bilan farqlanadi. To‘g‘ri, bu turdagi ertaklarda sehrli-fantastik belgilarning mavjudligini inkor qilib bo‘lmaydi. Ammo umumiy ifoda chegarasi maishiy ertaklarda ancha cheklangan. Chunki ularda xalq, avvalo, oddiy odamlar qo‘lidan keladigan ishlar yuzasidan fikr yuritadi. Bevosita real hayot, turmushda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqealar asos qilib olingani uchun ham bunday asarlar turkumiga maishiy ertaklar atamasi berilgan. Ularda haqiqiy hayotdagi inson – millat vakili (xoh ijobiy, xoh salbiy bo‘lsin), uning imkoniyati darajasidagi jismoniy kuchi, ilmi, aqliga voqealar zaminida tavsif beriladi. Aksariyat hollarda asar qahramonlarining ismlari ham qayd etilmaydi. Chol, kampir, bir odam, o‘g‘il, qiz, kambag‘al kabi nomli insonlar mazkur ertaklarning qahramonlari bo‘lib kelaveradi. Bu bilan dono xalq ertakda bevosita tinglovchi aholining har biri asar qahramoni ekanini ta’kidlagan bo‘lishi mumkin. Ba’zan esa shaxs haqidagi ma’lumotlar o‘ta aniq shaklda beriladi. Ertakchi bu usul bilan ham qahramon taqdiri to‘qima emasligini uqtirgandek bo‘ladi. Filologiya fanlari doktori Komil Imomov shunday deydi: «Hayotiy-maishiy ertaklarda qahramon obrazi folklorga xos individuallashtirilgan bo‘lib, uning ismi, avlod-ajdodi, elat, urug‘i hamda voqealar sodir bo‘ladigan o‘rin-joy nomlarigacha mukammal aniq beriladi. «O‘tgan zamonda, Bog‘dod tomonda, Mo‘majon kampir degan ayol yashar ekan. U qizidan qolgan nabirasi G‘aflatjonni bola qilib boqar ekan» . Ma’lum bo‘ladiki, qahramon ismi berilsa ham, berilmasa ham asosiy maqsad ertakdagi hikoya qilinayotgan voqea oddiy maishiy turmush sharoitida kechganini ta’kidlashdan iborat bo‘ladi. Xalqimizda «Och qornim, tinch qulog‘im» degan maqol bor. Maqolda odam ba’zan nochor turmush kechirishi mumkin, lekin bezovta kechgan soniyadan ko‘ra och qorin bilan yashash afzal ekani ko‘rsatilmoqda. Ota

nasihatining birinchisi ana shu vaziyatni izohlaydi. Ya'ni tinchlikdan ulug' ne'mat yo'qligi qayd etilmoqda. Bu falsafaning aniqligini o'zingiz hayotda sinagan bo'lsangiz, ajab emas. Xalqimizda «Maqtanma g'oz, hunaring oz» maqoli ham bor. Yo'q va amalga oshmagan ishlar qancha maqtalgani bilan amalga oshib qolmaydi. Maqtangan odam yuzi shuvit bo'ladi. Xalqimiz «Mehnat – mehnatning tagi rohat», deydi. Ya'ni: «qimirlagan qir oshar» deganlaridek har bir kimsa hayotga ishonishi, harakat qilishni kanda qilmasligi lozim. Quduqdan suv topa olmagan sahrodagi yo'lovchi umidsizlikka uchrab to'xtab qolmasligi kerak. Ma'lum bo'ladiki, ertakni yaratishdan nazarda tutilgan bosh maqsad farzandga qiyinchiliksiz hayot kechirish kalitini tutqizishdan iborat ekan. Nasihatga amal qilish esa ertakda bayon etilgan voqealarda namoyon bo'ladi. Og'a-inilar ajdar, sher, qaroqchilar to'sig'idan o'z tadbirkorliklari bilan oson o'tadilar. Ammo kenja botir bog'da uxlab yotgan podshohga zahar solmoqchi bo'lgan ilonni qilich bilan chopib, qurolini qiniga solayotganida podshoh uyg'onib qoladi va kuyovini qotillik qilmoqchi bo'lishda ayblaydi. Ana shu voqeada ham haqiqat, adolat oxir pirovardi g'alaba qiladi. Ertak mohiyati unda ifodalangan lavhalar davomida yechilib boradi. Hayotiy ertaklarda to'g'rilik va egrilik, mehnatsevarlik va dangasalik, poklik va nopoklik, mardlik va xiyonat doimiy ravishda qarama-qarshi qo'yiladi. Xalq ertak davomida kichik, e'tiborga arzimaydigan unsurlardan ustalik bilan foydalanadi, vaziyat echimini ular orqali hal qiladi. «Tuhmatga uchragan kishi» ertagida bir boy ko'chada jiyanining xotinini ko'rib, unga uylanmoqchi bo'ladi. Insofga kelgan amakidek jiyanini savdoga jo'natib yuboradi, ammo keliniga uylana olmaydi. Kelin karvonboshining qo'liga tushadi. Bu erda ham tuhmatga uchraydi. Zo'rg'a qochib qutuladi. Yo'lda bir o'g'rini o'limdan qutqaradi. Lekin o'g'ri unga tuhmat qilib karvonga sotib yuboradi. Taqdir kelinni qutqaradi. Ammo bu safar kelin o'g'rilar to'dasiga duch keladi. Yana ozodlikka chiqadi va oxir pirovardida bir shaharga podshoh bo'ladi. Ertak oxirida kelinga tuhmat qilgan odamlarning hammasi bir joyga to'planadilar va haqiqat ro'yobga chiqadi. Ertakning bosh g'oyasi ma'naviy poklikni ulug'lash. Xalq «Haqiqat bukiladi, ammo sinmaydi» maqolining izohini bu ertakda ifodalashga harakat

qilgan. Har bir lavha muayyan maqsadni amalga oshiradi. Inson idroki chegarasiz quvvatga ega ekanligi isbotlanadi. Bir yoshgina kelinning boShidan o'tgan mudhish hodisalar, uning turli tuhmatlarga bardosh berishi tinglovchiga «Sening peshonangdagi mushkulot kelinniki oldida arzimaydi-ku» degan fikrni ta'kidlagandek bo'ladi. Ertak yakunida yana bir ibratli hikmat bor. Kelinning eri tuhmatchilarni jazolash haqida gapirganida, xotini: - Yo'q, ular bilan teng bo'lish kerak emas, - deb javob beribdi» . Demak, xalq yomon va yovuz odam bilan muomalada bo'lishni, hatto, uni jazolashni ham unga teng bo'lish alomati deb baholaydi. Aynan shu bois o'zbek xalqi, millat mentaliteti haqida gap borganda, oliy himmatlilik, bag'rikenglik tilga olinadi. Binobarin, hayotiy ertaklar (ularni folklorshunoslikda «hayotiy-maishiy», «hayotiy-satirik», «maishiy» ertaklar deb ham yuritadilar) qahramonlari o'zbek millatining ramziy vakili ekan. Ular xalqqa iymon, vijdon, erk, idrok, iroda, qanoat, aql, hunar, ilm haqida tarbiyaviy tushunchalar beradi. Xalq ertaklari badiiy so'z san'atining go'zal namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir och ekan, bir to'q ekan...» jumlasidan boshlanar ekan, ertak «murod-maqsadiga etibdi» degan yakungacha tinglovchi diqqati voqealarga to'liq raviShda jalb etadi. Undan keyin nima bo'ladi, bu hodisa qanday tugaydi, degan savollar tinglovchi xayolini band etib turadi. Ertaklarning yashovchanligiga sabab ham ularning badiiy mukammalligi bilan belgilanadi. Mazmun jihatdan hayotning turli masalalari ertaklar tematik diapazonini ta'minlaydi. Siz ular bilan tanishgach, botirlik, yurtga fidoyilik, odamgarchilik, vafodorlik, himmat va saxovat haqida aniq tasavvurga ega bo'lasiz, o'zingizda ham ertaklar qahramonlaridagi yaxshi fazilatlarning bo'lishini xohlab qolasiz, shunga intilasiz.

Ertaklarni ham tinglaymiz, ham o'qiymiz dedik. Tinglaydigan ertaklarimiz professional ertak aytuvchilar, ya'ni ertakchilar tomonidan qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Ertakchilar shunchaki hikoya qilmaydilar. Har bir ertakchi u yoki bu ertakni qayta yaratadi desak, xato bo'lmaydi. Chunki ularning har biri o'zining hikoya qilish uslubi, didi, dunyoqarashiga ko'ra ajralib turadi. Bundan tashqan, ertakchi tinglovchilarning saviyasi va talabiga ko'ra ertakni o'zgartirishi mumkin.

O'zbek xalq og'zaki ijodi tarixida ertaklarning badiiy asar darajasiga ko'tarilishi va bugungi kungacha saqlanib qolishida Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Haydar Baychi o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li, Husanboy Rasul o'g'li kabi ertakchi, matalchilarimiz katta xizmat qilganlar. Ular og'zidan yozib olingan o'zbek xalq ertaklarining bebaho namunalari bizga hanuzgacha ma'naviy zavq berib kelyapti.

Latifa. O'zbeklar dunyodagi boshqa xalqlar kabi hazilni, taqlidni, kulgini yaxshi ko'radilar. Kulgi insonga sog'lik, yaxshi kayfiyat, o'z-o'zidan qoniqish tuyg'usini bag'ishlaydi. Xalqimizning dono farzandlari Yusufjon qiziq, Aka buxor, G'anijon Toshmatov kabilar hayot maShaqqatli kechgan paytlarda ham yurtimiz ahliga tetiklik, umid, ishonch ulashganlar. Bunday natijaga erishish o'z vaqti uchun juda og'ir bo'lgan. Latifalar, loflar, askiya, xalq dramasi asarlari, muqallidchilikdan unumli foydalanish zukko va iqtidorli insonlarni xaqiqiy ma'noda xalq sevgisini qozonish sharafiga muyassar qildi. Inson qalbidagi tashvishni, tanasidagi xastalik xurujini chetroqqa surishda kulgili latifalar juda samarali vosita hisoblangan. «Latifa» atamasi arabcha «lutf» (لطف) so'zidan olingan bo'lib, nozik fikrlash, yaxshilik qilmoq, muruvvat ko'rsatmoq, Sharaflamoq ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, lug'atlarda latifa nozik, ixcham, kichik, chuqur va keng ma'nolarini ifodalaydi. Maxsus lug'at hisoblangan Alisher Navoiy asarlariga tayyorlangan lug'atda buyuk adibning shu o'zakli so'zlardan o'n to'rt ma'noda foydalangani qayd etiladi. Ular qatorida nozik ma'noli so'zlar, ajoyib hikoyalardan tortib poklik, mehribonlik tushunchalarigacha o'rin olgan. Xullas, og'zaki ijodimizdagi bu janr atamasi har tomonlama uning shakli va mazmuni, maqsadi, vazifasiga mos ravishda tanlangan. Latifalarning janr xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- 1 Latifalar badiiy adabiyotdagi epik tur (jins) ga mansub. Ammo ijroda dramatik – aktyorlik mahorati ahamiyatli.
2. Latifalar shaklan nasrda yaratiladi.
3. Hajm jihatdan cheklangan.
4. Voqea ifodasida dialoglardan keng foydalaniladi.

5. Favqulodda kutilmagan echimi kulgi uygʻotadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, latifalarning shakllanishi va rivojlanishi IX-XI asrlarga toʻgʻri kelgan. Xususan, shu davrda oliy ilm darajasiga erishgan allomalardan birini yoqtirib qolgan podshoh oʻz saroyining qarshisiga olimga atab bolaxonali uy qurib beradi. Alloma ilmi, dono, hurfikr ekan. Ammo uning tashqi koʻrinishi besoʻnaqay, xunuk ekan. Kunlardan bir kun podshoh tong paytida oʻz tarafida turib tong havosidan toʻyib nafas olayotsa, qarshisidagi bolaxonadan olimning gavdasi koʻrinibdi. Shunda podsho uning besoʻnaqayligiga urgʻu berib: - Mavlono, koʻchaning narigi betida bir eshak turibdimi? – debdi. Alloma Shu zahoti hech ikkilanmay:- Yoʻq, olampanoh, men bu tomonga katta koʻzgu – oyna qoʻydirganman, - degan ekan. Nasriddin Afandi nomi bilan latifalar mazmunining bogʻlanib, uygʻunlashuvi XIX asr oxiri XX asr boshlari bilan belgilanadi. Oʻzbek folklorshunosligi fani asoschisi, professor Hodi Zarifov qayd qilishiga binoan, Nasriddin Afandi nomining oʻzbek latifalarida shuhrat topishi yurtimizda matbaaning paydo boʻlishi, Nasriddin Afandi latifalarining kitob tarzda nashr ettirilishidan boshlangan. Aytish mumkinki, Ozarbayjonda eʼlon qilingan «Mulla Nasriddin» jurnalining oʻzbek ziyolilari orasida keng ommalashuvi bu jarayonni tezlashtirgan. Oʻtgan asr boshlarida «Nasriddin Afandi» nomi bilan kitoblar nashr ettiriladi. Keyinchalik Sharif Rizo, Sobir Abdulla, Adham Rahmat, Hoshimjon Razzoqov, Bahodir Sarimsoqov, Farida Yoʻldosheva kabi ziyoli, adib, olimlar tashabbusi bilan afandi latifalari bir necha marta nashr ettirildi, ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, Farida Yoʻldosheva qalamiga mansub «Oʻzbek latifalarida Nasriddin Afandi obrazi» risolasi bu janr tarixi, matn tahlili, obraz yaratish mahoratini oʻrganiShda muhim ahamiyatga ega boʻldi. Nasriddin Afandi latifalarini oʻqigan har bir kitobxon bu Shaxsning tarixi bilan qiziqadi. Shayx Nasriddin, Xoʻja Nasriddin, Mulla Nasriddin, Nasriddin Afandi nomlarining qayta-qayta takrorlanishi bu qiziqishni yana ham orttiradi. Ilmiy maʼlumotlarda Nasriddin ismli shaxs 1208 - yilda vafot etgani, hatto hijriy hisob bilan uning maqbarasiga 386 – yilda tugʻilgan deb yozilgani, yil raqamlarining oʻrni atayin teskari tartibda berilgani haqida maʼlumotlar bor. Bu dalillarni tadqiqotchi Farida

Yo'ldosheva shunday xulosalaydi: «Tarixda Xo'ja Nasriddin ismli shaxslar, Nasriddin Afandi prototiplarining bir qanchasi o'tgan bo'lishi mumkin... Mana shu tarixiy shaxslarni xalq qahramoni Xo'ja Nasriddinga hayot bag'ishlagan prototiplar desak bo'ladimi. Aksincha, xalq qahramoni Nasriddin tarixiy shaxslarga shuhrat keltirdi». Haqiqatan ham, xalq yaratgan Nasriddin afandi latifalaridagi turfa kulgili voqea-hodisalar shu qadar serko'lam va ibratliki, ulardagi umumiy mazmun bir inson hayoti chegarasiga sig'maydi. Shuning uchun mazkur latifalarning bosh qahramonini Nasriddin afandi ramzida mujassam topgan xalq deb tushunish haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Chunki tarixda Rashiddin Vatvot, Alisher Navoiy, Binoiy, Mashrab, Muqimiy, keyinchalik A.Qodiriy, G'.G'ulom, A.Qahhor, M.Shayxzoda, A.Rahmat, H.Razzoqov, S.Ahmad, O.Sharafiddinov, E.Vohidov, O'.Hoshimov, O.Matchon, A.Meliboyev kabi insonlar hayotida ro'y bergan kulgili, ibratli, hazil-mutoiba hodisalar tavsifi vaqt o'tishi bilan latifalarda, xususan, Nasriddin afandi bilan bog'liq og'zaki ijod asarlarida o'z ifodasini topgan bo'lishi tabiiydir. Har bir xalqda ham hayot lavhalaridan kulgili vaziyat yaratadigan insonlar bor. Ularning fikr yuritish usulida favqulodda komik holat hosil qilish sirlari bo'ladi. Shuning uchun ham hindlarda Birbol, arablarda Jo'ha, qozoqlarda Aldar kusa, tojiklarda Mushfiqiy, turkmanlarda Mirali, qoraqalpoqlarda Umrbek nomlari bilan latifa qahramonlari shuhrat topgan, ammo latifa matnlarida mushtarak vaziyatlar juda ko'p uchraydi. Bunday holatlarda qaysi xalq vakilidan boshqa xalq vakili muayyan voqeani o'zlashtirgan yoki ko'chirgan degan savolni qo'yish to'g'ri emas. Ijtimoiy, maishiy hayotdagi o'xshashliklar oqibatida bir xil latifalarning yaratilishini asoslash ma'qulroq natija beradi. Masalan, Birbol latifalaridan birida kunlardan bir kun podshoh unga juda qaltis hazil o'ylab topishni va bu hazilning kechirimi undan ham qaltisroq bo'lishi lozimligini buyuradi. Birbol shoh taklifini qabul qiladi. Oradan bir necha kun o'tganidan so'ng Birbol hech kim yo'q vaqtida podshohning belini chimchilab oladi. Shoh g'azab bilan: «Bu nima qilganing?» - deb so'raganida, Birbol: «Kechirasiz, shohim, sizni malikam, deb o'ylabman», - deb javob beradi. Qizig'i shundaki, aynan shu mazmundagi latifa o'zbeklarda ham, turkmanlarda ham, ozarbayjonlarda ham

mashhur. Bu misol latifalarning yashovchanligini, turli xalqlarda bir xil vaziyatlar bo'lishi tabiiyligini ko'rsatadi. Natijada, qaysi xalq mazkur latifani oldinroq yaratganligini aniqlash mumkin bo'lmaydi va aniqlashning hojati ham qolmaydi. O'zbek Nasriddin afandi latifalarida bosh qahramon o'ta hozirjavob, o'ta zukko, dono va tadbirkor inson sifatida gavdalanadi. Hayotda uni so'z bilan, xatti-harakat bilan echimi yo'q vaziyatga tushirish mumkin emas. Chunki aqlli, mutafakkir Nasriddin afandi qiyofasida butun xalqning, millatning so'zga chechanligi, zakiy, ya'ni nozik fikr yuritish fazilati o'z ifodasini topgan. Har bir latifa matnida uni o'ylab topgan shaxs aqli, vaziyatni aniqlash kayfiyati va zakovati namoyon bo'ladi. Latifalarning e'tiborli, tinglovchini o'ziga jalb qiladigan jihati shundaki, ularda savol-javob qilayotgan taraflar bir-birini mutlaqo echimi topilmas vaziyatga tushirishga urinadilar. Ayniqsa, Nasriddin afandi qismati latifaning yakuniy qismiga etgunga qadar juda og'ir va chorasiz taqdir sharoitida tasvirlanadi. Ammo xalq Nasriddin afandi tarafida bo'lgani uchun ana shunday mushkul vaziyatdan ham o'z topqirligi, so'zga ustaligi bilan qahramonimiz echim topib keta oladi. Bir misolga murojaat qilaylik. Kunlardan bir kun Afandining saroyga kirib kelayotganidan xabar topgan podsho u haqda o'zi topgan bir voqea bilan mulzam qilmoqchi bo'libdi: «Bugun tunda, - debdi u, - afandi bilan ikkalamiz tush ko'rdik». Tabiiy, bunday paytlarda Afandi faqat tasdiq ma'nosini bildirishi shart hisoblangan. Podshoh davom etibdi: «Afandi bilan men tushimizda yangi tug'ilgan mushuk bolasiga aylanib qolibmiz. Osmondan bir kalxat tushib, ikkalamizni ikki changaliga olib osmonga parvoz qilibdi. Ammo shu yaqin orada paydo bo'lgan burgutning xamlasidan qochib, ikkalamizni changalidan bo'shatib yuboribdi. Men shinni o'raga tushibman, afandi nopok o'raga tushibdi». Shunda saroydagi mulozimlar afandi ustidan kulib, qah-qaha ko'tarishibdi. Afandi bamaylixotir: «Shohim, tushimizning davomini ham ayting-da», - debdi. To'satdan aytilgan gapdan hayron bo'lgan podshoh ikkilanib: «Xo'sh-xo'sh, davomida nima bo'lgan edi?» - deb so'rashga majbur bo'libdi. Afandi: «Siz shinni o'radan, men nopok o'radan chiqdim, to'g'rimi?» - debdi. «Ha-ha, - debdi podsho, - juda to'g'ri», - debdi. Shunda afandi: «Men sizni yaladim, siz meni yaladingiz», - deb javob

bergan ekan. Ma'lum bo'ladiki, Nasriddinning vaziyatni to'g'ri baholashiga, zudlik bilan to'g'ri echim topa olishiga tasanno aytmasdan ilojimiz yo'q. Afandi latifalarida so'z, iboralarning aniq qo'llanilishi xalq qahramonining o'zbek tili imkoniyatlaridan, qochirimlaridan, so'z o'yinlaridan haqiqiy zarshunosdek foydalanishini dalillaydi. Afandi juda sodda ko'ringani bilan tilimizning go'zalligini, tovush tovlanishini mahorat bilan qo'llaydi. Kunlardan bir kun afandi katta bir amaldorni «Siz ahmoqsiz» deb ranjitibdi. Amaldor uni qoziga boshlab boribdi. Qozi amaldorning xizmatlarini afandiga yaxshilab tushuntiribdi. Nasihat qilibdi. So'zining oxirida afandiga amaldorga qarab «Siz ahmoq odam emassiz», - deyiShni buyuribdi. Afandi shu zahoti qozining buyrug'ini bajarib: «Siz, ahmoq, odam emassiz» - degan ekan. Jumladagi ahmoq so'zining undalma urg'usi bilan talaffuz qiliniShi oqibatida sho'ring qurg'ur amaldor avval faqat ahmoq deb atalgan bo'lsa, qozining buyrug'ini «bajargan» afandi endi uni odam o'rnida ham ko'rmasligini ma'lum qildi. Bunday latifalarni to'qigan odamlar o'zbek tilini nihoyatda yaxshi biladigan va so'z o'yinlarini chuqur his qiladigan insonlar bo'lishgani aniq ko'rinib turadi. Badiiy adabiyotda kitobxonni hayot tashvishlaridan ma'lum bir muddat davomida to'liq xalos etadigan asarlar ham yaratiladi. Ayrim sahna asarlarini tomoSha qilgan tomoshabin hamma tashvishlarini unutadi. Katta hayot muammolaridan forig' bo'ladi. Xususan, bizningcha, «Toshbolta oshiq», «Kelinlar qo'zg'aloni», «Oltin devor» kabi dramalar aynan ana Shu maqsadda sahnalashtirilgan. Bizni o'ziga maftun qiluvchi joziba asar qahramonlarining favqulodda sodda qarorga kelishlari, bir-birlariga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishlari bilan belgilanadi. Afandi latifalarida afandidagi ikkinchi xislat – uning nihoyatda soddaligi, aniqroq aytsak, no'noqligini namoyiSh qiliSh bilan izohlangan. Bunday namunalarda biz afandining soddaligidan, hayotdagi ko'ngilsiz voqealarni o'ziga olmasligidan zavqlanamiz. Afandining afandiligi uning afandiligi bilan sharhlanadi. Ya'ni bironta es-hushi joyida odam qilishi mumkin bo'lmagan qarorni aynan afandi qabul qiladi. Nasriddin afandi ko'chada ketayotib, kichkina bir ko'zgu – oyna topib olibdi. Uni qo'liga olar ekan, o'z aksini ko'rgani zahoti: «E, kechirasiz, oyna siznikimidi?» -

deb tashlab yuboribdi. Oyna sinibdi. Shunda afandi: «Kerak bo‘lmasa, ayta qolmaysizmi? O‘zim olar edim-ku», - degan ekan. Gap shundaki, xalqimiz ijtimoiy turmush tashvishlaridan zerikkan ba’zi paytlarda Shunchaki ko‘ngil xushligi uchun ham kulgi yaratish istagini bildiradi. Bunday latifalardan murakkab vaziyat izohlarini izlash to‘g‘ri emas. Chunki ularni xalq faqat engil kulgiga taʼshnaligidan yaratgan, xolos. “Kunlardan bir kun tunda afandi suv olmoqchi bo‘lib, quduq tepasiga kelsa, quduq tubida oy ko‘rinibdi. Afandi xotinini chaqirib, arqon olib kelishini buyuribdi. U arqon yordamida oyni quduqdan chiqarmoqchi bo‘lgan ekan-da. Quduqqa tashlangan arqon qaysidir ildizga ilinib qolibdi. Afandi zarb bilan arqonni tortgan ekan, chalqanchasiga yiqilib tushibdi. Shunda ko‘zi osmondagi oyga tushibdi. «Hayriyat, chiqarib olibman-ku», - degan ekan afandi o‘zidan mamnun bo‘lib”. Bunday latifalar bilan tanishish, ayniqsa, hikoya qilish mahoratiga ega inson ijrosida tinglash odamga huzur bag‘ishlaydi. Biz avval aytganimizdek, bu turdagi latifalarda tinglovchi sodda afandi qarorlaridan kuladi. Lekin shuni ham qayd qilish lozimki, xalq bu bilan nima demoqchi ekanini tushunib etishga ham harakat qilish zarar keltirmaydi. Ehtimol, dono xalq shu kabi latifalar vositasida «Sen bunchalik sodda bo‘lma!» demoqchimi? Xulosa chiqarish har kimning o‘ziga havola.

Shunday qilib, xalq latifalari og‘zaki ijodning ajralmas qismi sifatida qadimgi qadriyatlarning durdonalaridan hisoblanadi. Ularda afandi timsolida xalqning o‘z farzandlariga har qanday mushkul sharoitning ham munosib yechimi borligini uqtirishga da’vat seziladi. Eng muhimi, ana shu echimni topa bilish mahoratida. Millatning tabiatini bilmoqchi bo‘lgan inson latifalarni tinglash, tushunish, his qilish, qolaversa, maza qilib kulish orqali muhim ma’lumotlar bilan tanishadi.

Rivoyatlar. Bu so‘z arab tilidan olingan bo‘lib (روایت), hikoya, qissa ma’nolarini ifolaydi. Rivoyatlar afsonalardan hayotga yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalarda ro‘y berishi mumkin bo‘lmagan hodisalar hikoya qilinsa, rivoyatlardagi voqealar, ko‘pincha, tarixiy shaxslar, taniqli allomalar, davlat arboblarning hayotlaridagi muayyan lavhalar yuzasidan xabar beradi. Ba’zan bir voqeani eshitganimizda, uning aynan ro‘y berishiga to‘liq ishonamiz, ba’zan

alohida fantastik tasvirdan xoli bo'lsa ham hikoyaga ishonmasligimiz mumkin. Shuning uchun afsona va rivoyat o'rtasida keskin farqni belgilash qiyin kechadi. Har holda ko'p yillik tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki, ishonilgan voqeani rivoyat, ishonish mumkin bo'lmaganini afsona deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki mazmun, syujet tizimi jihatdan afsona va rivoyatlarning farqi bo'lmaydi. Faqat rivoyatlar tarixiy dalil, isbot ildiziga ega hisoblanadilar. Chunki rivoyatlardagi voqealar, ko'pincha, uning ishtirokchisi, guvohi tomonidan yozib qoldiriladi yoki og'izdan og'izga o'tmishda ro'y bergan hayratomuz lavha sifatida o'tib yashaydi, ajdoddan avlodga madaniy meros tarzida saqlanadi. Rivoyatlar o'zida aks ettirgan voqea bayoniga ko'ra afsonalar kabi epik jinsga mansubdirlar. Ular hajm jihatdan qisqa bo'ladi. Matn hajmi qisqa, ifodalangan voqea lavhalari son jihatdan chegaralangan. Badiiy tasvirga ortiqcha urg'u berilmaydi, chunki ularda voqea bayoni ustuvor hisoblanadi.

Yurtimiz tarixida ro'y bergan eng qadimgi ibratli voqea haqidagi rivoyat eradan avval mustaqillik uchun jon fido qilgan To'maris va Shiroq nomi bilan bog'liqdir. Shu o'rinda aytish joizki, bu ikki go'zal insonlarning mardligi aks etgan jasorat tarixini bir olimlar afsona, ikkinchilari rivoyat deb ataganlar. Filologiya fanlari doktori, professor Oxunjon Safarov o'zining "To'maris ko'zlarida chaqnagan umid" maqolasida bu ikkilanishga ilmiy asosda chek qo'ydi. Maqolada voqea bayonining rivoyat janriga mansub ekani isbotlab berildi. G'ururlansa arziydigan jihati shundaki, qadimgi O'zbek yurtidagi To'marisning Eron shohi Kirga, Shiroqning Doroga qarshi qahramonligi qadimgi yunon tarixchisi Herodot (eradan avvalgi 484-431/426 yillar orasida yashagan) ning "Tarix", yunon tarixchisi Poliyen (eradan avvalgi II asr) ning "Harbiy hiylalar" kitobida saqlanib, bizgacha etib kelgan. Agar bu ikki tarixchi olim asarlari butun dunyoga mashhur ekanligini, eron shohlariga qarshi chiqqan vatanparvar shaxslar bizning ajdodimiz ekanini nazarda tutsak, Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan elning dovrug'i eradan avval ham shuhrat qozongani ma'lum bo'ladi. To'maris Kirni 529 (e.a) yilda mag'lub etadi va o'ldiradi. Shiroqning yakka o'zi 513 (e.a) yilda Doro qo'shini ustidan g'alaba qozonadi. Agar To'maris harbiy san'ati bilan yurtini asragan

bo'lsa, Shiroq burun, quloqlarini kesib, go'yo Doro tarafida bo'lgani uchun o'zini jazolangandek qilib ko'rsatadi, shoh ishonchini qozonadi va eron qo'shinlarini sahroda adashtirib maqsadiga etadi: yurtini qonxo'r va razil dushmandan xalos etadi. Herodot va Polien bergan ma'lumotlar tarixiy asosga ega bo'lgani uchun bugun ularni rivoyat tarzida qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Xalq yodida qolgan va keyinchalik rivoyatlarga aylangan ibratli voqealar, ko'pincha, buyuk insonlar hayoti bilan bog'lanadi. Mana ulardan bir misol: "Ibn Sino har kuni betob, xasta odamlarni qabul qilar ekan. Ammo navbat bir yigitga etib kelganida, uni chetlab o'tar ekan. Kunlardan bir kun yigitning onasi u yotgan to'shak yoniga bir kosa qatiq qo'yib, o'z yumushlari bilan band bo'libdi. Yigit kosadagi qatiqqa tikilib yotsa, shipdan bir ilon tushib qatiqqa zaharini solibdi. Jonidan to'ygan yigit alam ustida kosadagi zaharlangan qatiqni jon-jahdi bilan ichib yuboribdi. Ammo bir oz o'tmay o'zini tuzuk seza boshlabdi. Soat o'tgani sayin u sog'ayibdi. Ertasiga ancha o'ziga kelib, yana Ibn Sino qabuliga boribdi. Bu safar ham tabib uni chetlab o'tibdi. Ajablangan yigit unga e'tiroz bildiribdi. Shunda alloma:- Siz kecha va avvallari kelganingizda, dardingizga davo yo'q edi. Shuning uchun sizni ko'rmagandim. Chunki men sizga qatiqni to'shak yoniga qo'yish, unga ilon zahar solishi, bu qatiqni siz ichishingiz kerakligini ayta olmas edim-da. Ammo taqdir sizga bu imkoniyatni etkazdi. Endi sizga tabibning keragi yo'q. Siz mutlaqo sog'siz. Shuning uchun sizni chetlab o'tdim, - debdi". Rivoyat dunyoga mashhur alloma Ibn Sinoning o'z ilmini qanchalar mukammal egallaganini, ayni paytda, unda har bir mijozdagi o'zgarishlarni ziyraklik bilan kuzatish qobiliyati ham rivojlanganini bizga, keyingi avlodlarga ma'lum qilish maqsadida yaratilgan. Shu yo'l bilan bizning ongimiz, dunyoqarashimiz, kasbimizga bo'lgan munosabatni ham shakllantirishga xizmat qilishini inkor etolmaymiz. Tarixiy shaxslar bosh qahramon bo'lgan rivoyatlarda ularning ilmi, zakiyligi, nozik tabiati, ulug'vorligi, kechirimliligi, har bir ishni sidqidildan bajariishi, eng muhimi, Shaxsiy manfaatni ko'zlashdan uzoqligi va tamasizligi kabi fazilatlar ulug'lanadi. Agar e'tibor qilsak, ularning har biri bizga insonning go'zal siymosi, namunasi sifatida targ'ib etiladi. Rivoyatlarning yana bir turi mahalliy hududlardagi o'rin-joylarning nomiga oidligi

bilan ajralib turadi. Muhimi shundaki, bunday rivoyatlarda asosiy e'tibor tasvirlanayotgan voqeadagi fantastik jihatlariga emas, balki hayotni kuzatish, to'g'ri xulosalarga kelish, aqlni ishga solish fazilatlariga qaratiladi. Masalan: "Buxoro va Navoiy oralig'ida katta Malik cho'li yastanib yotibdi. Uning bir qismini O'rta cho'l, tog' yon bag'rini esa Qarnob cho'li ham deb yuritadilar. Malikcho'l elkasidan esa Zarafshon oqadi. Malikning qoq o'rtasi – avtomobil yo'li yoqasida Malik darvozasi va yopiq hovuz xarobalari saqlangan. "Malik" rivoyatini bizga Qizil tepaning Kenagas qishlog'ida yashovchi mashhur Saidmurod Panoh baxshining o'g'li sakson yoshli usta Berdi ota aytib bergan edi:- Bir kuni Buxoro amiri faytunda Nurota, Karmana, Ziyodin, Sultonobodni aylanib kelib charchaydi-yu, cho'lda soyabon o'rnattirib, dam oladi. Amirning shotirlaridan biri Malik degich yigit ekan. Amir uxlab qoladi. Shu paytda Amirning burnidan bir chivin chiqib, so'ng suv to'la kosa ustida turgan pichoq ustidan yurib o'tib, sichqon iniga kirib ketadi. Bir ozdan so'ng chivin sichqon inidan chiqib keladi-da, yana o'sha suv to'la kosa ustidagi pichoqdan yurib o'tib, podshoning burniga kirib ketadi. Malik botir bu hangomani ko'rib hayratda qoladi-yu, nima qilarini bilmaydi. Amir bo'lsa qattiq uxlagan, boshqa amaldoru xizmatkorlar ham chekkada dam olayotgan ekan. Malik o'sha chivinni o'ldiraman desa, amir uyg'onib qolib unga qo'l ko'targanini ko'rsa, tayinki, boshi ketadi. Nihoyat, amir uyg'onibdi. Malik uning qo'liga suv quyibdi, amaldorlar davra quribdilar. Amir g'aroyib tushini aytibdi: - Tushimda bir uzoq cho'lga chiqib ketganmishman. Ancha yurib daryoga etibman. Daryo ustida temir ko'prik bor ekan. Ko'prikdan narigi sohilga o'tib, bir g'orga kirib ketibman. G'or ichida ikki xum tilla yotganmiSh. G'ordan chiqib, ko'prikdan o'tib, cho'ldan kechib yana taxtinga kelib o'tiribman. Tushimning ta'birini aytinglar-chi, ne kori hol bo'lar ekan? Amirning hamrohlari birisi u, birisi bu deyishibdi. Malik dono yigit ekan, u sirni bilibdi-yu, o'zini kasalga solib yotib olibdi. "O'zimga kelib olsam, sizlarga etib olaman", - debdi. Amir kishilari bilan jo'nab ketibdi. Malik darrov ketmon olib, o'sha chivin kirib chiqqan sichqon inini kavlashga tushibdi. Haqiqatan u yerda ikki xum tilla bor ekan. Malik tilladan bir xaltasini olib, ahli nomdor, dongdor ustalarni boshlab kelib, shu erga qishloq

qurdiribdi, hovuzlar bunyod etibdi. Ana o‘shandan buyon cho‘lni “Cho‘li Malik” deb atashibdilar”. Rivoyatlar haqida aytilgan fikrlardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

1. Rivoyatlar afsonalardan farqli ravishda bevosita hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealarga asoslanadi.

2. Ular mavzu jihatdan turlarga bo‘lingan holda yo biron tarixiy shaxs hayotidagi ibratli voqeani bayon etadi, yo geografik o‘rin-joyning nomini izohlaydi.

3. Rivoyatlarda badiiy tasvirdan ko‘ra ro‘y bergan voqeani qisqa va ixcham, sodda va ravon tarzda bayon qilishga ko‘proq e‘tibor beriladi. Aslini olganda, aynan shu fazilatlar rivoyatlarning badiiyligini belgilaydi.

Maqol. Maqollarni kishilar ko‘pincha, o‘zaro suhbatda, bir-birlari bilan gaplashganlarida ishlatadilar. Maqol ibratli so‘zdir. Shunday so‘zki, so‘zga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta’sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo‘ladi. Kimki uni ko‘p ishlatsa, o‘shanmg nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar.

«Maqol», aslida arabcha, «so‘z» degan ma‘noni bildiradi. Uni «otalar so‘zi» ham deydilar. Bunday nomlash maqolni tushunishni osonlashtiradi. Haqiqatan ham, u ota-bobolarimizning qadim- qadimlardan ishlatib kelgan so‘zlari. Shu paytgacha eskirmay kelgan, unutilmagan so‘zlaridir.

Zamon o‘tishi bilan ko‘p so‘zlar eskiradi, o‘rniga yangisi keladi. Vaqti kelib, o‘sha yangisi ham o‘zgaradi, o‘rniga boshqasi keladi. Masalan, «qo‘l»ni bir vaqtlar «al» deyishgan. Hozir buni yoshlar emas, kattalar ham tushunmaydilar. Til-adabiyot bilan shug‘ullanuvchilargina biladilar. «Dunyo»ni «ochun», «kitob»ni «bitik» der edilar. Ko‘ryapsizki, hamma narsa o‘zgarishda ekan. Maqollar ham o‘zgaradi, lekin juda sekin o‘zgaradi. So‘zlari o‘zgarganda ham maqsadi, mazmun-mohiyati o‘zgarmaydi.

Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko‘rgan – kechirganlari, tajribalari asosida kelgan xulosa so‘zlaridir. Masalan, «Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas», deymiz. Bu so‘zlar zamirida vatanidan ayrilib, musofirliknmg achchiq alamlarini tortgan kishining, begona yurtlarda, notanish

odamlar orasida vatansizlikdan rangi ro'yi somon (sariq) bo'lgan kiShining achchiq iztiroblari yotibdi. Yo bo'lmasa, «0'zgalar yurtida sulton bo'lguncha, o'z elingda cho'pon bo'l» degan maqolni oling. Bu so'zlar tagida ham achchiq tajribalar, boshdan kechirishlar yotibdi. Beixtiyor shoh va shoir bobomiz Bobur yodga tushadi. Hindistonday katta mamlakatga podshohlik qilgan kishi yurtdoshlari Andijondan qovun olib borganlarida yig'lagan edi. Haqiqatan ham, Vatan mehridan kuchli narsa dunyoda yo'q.

Maqol yana qanday belgi-xususiyatlarga ega bo'ladi?

Maqolda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo'nda bo'lishi lozim. Va, albatta, ibratli fikr aytilishi talab etiladi, bu ibratli fikr hukm shaklida bo'lishi kerak. Bularning hammasini yuqoridagi misollarda ko'rish mumkin.

Ko'plab maqollarda ichki qofiya bo'ladi. Masalan, yuqoridagi lkki misolning birinchisida «omon» bilan «somon», ikkinchisida «sulton» bilan «cho'pon» o'zaro ohangdosh, ya'ni qofiyadoshdir. Shu jihatdan ular topishmoqlarga o'xshab ketadilar. Masalan, «Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor», desak, bu yerda ham «bo'yi» va «to'ni» so'zlari qofiyadosh. Shunga qaramay, u maqol emas. Chunki unda xulosa yo'q. Hukm yo'q. Unda sirlik bor. Unda hamma so'zlar bir narsani bekutishga qaratilgan. U narsaning belgilari berilyapti, xolos. Maqolda esa, aksincha, xulosa beriladi.

Maqol she'riy shaklda ham bo'lishi mumkin.

Masalan:

Oltovlon ola bo'lsa,
Og'zidagini oldirar.
To'rtovlon tugal bo'lsa,
Tepadagini endirar.

Maqol birlik, o'zaro ittifoqlik haqida. Ifodaga kelsak, «oltovlon» ko'pchilikni, «to'rtovlon» ozchilikni anglatyapti. «Ola bo'lmoq» noahillikni, «tugal bo'lmoq» ahillikni bildirmoqda. «Og'zidagini oldirmoq» bor narsalarini boy berib qo'ymoq, «tepadagini endirmoq» qiyin, murakkab ishlarni ham osongina hal qilmoq ma'nolarini anglatyapti.

Maqolda o'sha xalqning tarixi, urf-udumi, turmush tarzi, fe'l-atvori, ruhiyati, qo'yingki, butun borlig'i aks etadi. Shunga ko'ra, maqollar xilma-xil mavzularda bo'lishi mumkin. Masalan, do'stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo.

Maqollarda ko'pincha so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan bo'ladi. Ularni o'z ma'nosida tushunsak, kutilgan ma'no chiqmaydi. Masalan, «Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda» maqolidagi so'zlar o'z ma'nosida qo'llangan. Lekin «Qazisan, qartasan - axir aslingga tortasan», «Olmaning tagiga olma tuShadi», «Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi» kabi ma'no jihatidan bir-biriga juda yaqin bo'lgan maqollarda so'zlar o'z asl ma'nosida emas. Ularda gap aslida «qazi-qarta», «olma», «qarg'a» haqida emas, odam va uning fe'l-atvori haqida. Shuning uchun ham ular ko'chma ma'noda ishlatilmoqda deymiz.

Xalq maqollari - boyligimiz. Ota-bobolarimizning siz bilan bizga qoldirgan xazinalaridan biridir. Ularni izlab topishimiz, sevib o'rganishimiz lozim. Kerak o'rinlarda foydalanishni odat qilishimiz darkor. Shunda ular butun umrimiz davomida hamrohimiz bo'ladi. Har bir gapirgan gapimizning salmog'i oshadi. Sermazmun, ta'sirchan, keskir bo'ladi.

Topishmoq. Barcha xalqlar og'zaki ijodining eng sevimli, qiziqarli va o'ziga xos turi topishmoqlar hisoblanadi. Topishmoqlarni ba'zan «topmacha», «jumboq», «matal» deb atashgan. Topishmoqlarning quyidagi janr xususiyatlari bor:

1. Hajm jihatdan qisqa va ixcham.
2. Shaklan she'riy, nasriy ko'rinishga ega.
3. Yaratilish maqsadida matnda yashiringan narsani topish vazifasi qo'yiladi.
4. Mazmunida hayvonot, o'simlik, koinot, maiShiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari yashirin tarzda ifodalanadi, uni topishga da'vat etiladi.
5. Topilishi lozim bo'lgan narsa, ko'pincha, bitta, ba'zan ikki va undan ortiq miqdorga ega bo'ladi.
6. Topishmoqlarda qo'llangan asosiy badiiy san'at istiora (metafora) hisoblanadi. Topishmoqlarda topilishi lozim bo'lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Topishmoq hammabop

ommaviy janrdir. Ularda xalq hayotining barcha qirralari - turmush madaniyati, urf-odatlar va boshqa jihatlari, inson va uni o'rab olgan olam o'xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanadi. Topishmoqda yashirin ma'no ko'pincha majoziy shaklda keltiriladi, aniqrog'i, narsa nomi biron-bir qush, hayvon, buyum, o'simlikka qiyoslangan holda beriladi. Topishmoqni yechmoqchi bo'lgan kishi unda keltirilgan ko'chma belgilarini xayolida mantiqan solishtiradi va uni hayotdagi belgilarga to'g'ri kelishiga qarab javobni topadi. Topishmoq, avvalo, aqlni chiniqtiradigan, ayniqsa, bolalarni yoshlikdan mantiqiy fikrlashga undaydigan tarbiya vositasi bo'lsa, ayni paytda ko'ngilochar o'yin ham hisoblanadi. Topishmoqni aytilgan vaqtda yecha olmagan kishi «jazolanadi». Topishmoqning javobi uchun «shahar» yoki «qishloq» beradi.

Topishmoqlar kishining tasavvuri va tafakkurini o'stiradi, ayniqsa, bolalarni topag'on bo'lishga, hozirjavoblikka o'rgatadi.

Topishmoqlar nasriy va she'riy shaklda ixcham, sodda va ravon, qofiyali uslubda to'qiladi. Ular o'zida yashiringan predmetlar miqdoriga qarab bir va bir necha misrali bo'lishi mumkin. Topishmoqlarda narsalarning sifati, belgilari, o'xshashligi, mayda unsurlari batafsil ta'rif qilinadigan bo'lsa, ular ikki, uch, to'rt va undan ko'p misralarda ifodalanadi. Bularidan tashqari qochiriqlar, ramziy obrazlar, mubolag'ali so'zlar ko'paygan sari topishmoqlar hajmi oshib boradi. Topishmoqlarda o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, kichraytirish, metafora, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalari va usullaridan keng foydalaniladi.

Topishmoqlar tuzilishiga ko'ra bir yoki bir necha predmetli bo'lishi mumkin. Masalan, «Qoziq ustida qor turmas» (tuxum). Ushbu topishmoqda bir predmet - tuxum o'zining rangiga ko'ra qorga, shakli jihatidan o'tkir uchli narsa «qoziq» ustida turolmaydigan suyri (ellips)ga o'xshatilyapti. «O'zi bir qarich, soqoli qirq qarich» (igna) topishmogi ham bir predmetli bo'lib, ignani anglatadi. Undan o'tkazilgan uzun ip soqolga o'xshatilyapti. Topishmoqlarning bir necha predmet yashiringan turlari ham bo'ladi. Masalan, «Bir daraxtda o'n ikki shox, har shoxda o'ttiz yaproq - bir yog'i qora, bir yog'i oq» topishmog'ining javobi yil (daraxt), o'n

ikki oy (shox), o'ttiz kun (o'ttiz yaproq), o'ttiz kecha va kunduz (bir yog'i qora, bir yog'i oq).

Topishmoq shunday ajoyib janrki, unda g'ayritabiiy tuyulgan narsa aslida siz bilan biz kundalik hayotda ko'rib-bilib turgan narsa bo'lib chiqadi. «Teg desa tegmaydi, tegma desa tegadi» (lab) yoki

«Chin qushim, chinni qushim,

Chin tepaga qo'ndi qushim,

Tumshug'ini yerga berib,

Xalqqa salom berdi qushim». (Choynak)

Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari, jumladan, doston va ertaklar ichida ham uchraydi. Ular doston va ertaklar mazmunini boyitib, ularning qiziqarliligini, o'qishliligini ta'minlaydi. Agar esingizda bo'lsa, doston yoki ertak qahramonlari bir-birlarining aqli va farosatini topishmoqlar orqali sinaydilar. Bu hodisa ko'proq ertaklarda uchraydi. Topishmoq qatnashadigan ertaklar ikki xilda bo'ladi: Birinchisi, topishmoqli ertak bo'lib, bunda topishmoq ertak ichida keladi. Ikkinchisi, ertak-topishmoq hisoblanib, undagi asar voqealari topishmoq asosida qurilgan bo'ladi.

Topishmoqlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, ular olam va odam bilan bog'liq barcha narsa va hodisalami qamrab oladi. Masalan, tabiat hodisalari, yil fasli va mavsumlar, hayvonot dunyosi, odam, uning a'zolari va xislatlari, mehnat va o'quv qurollari, cholg'u asboblari, turar joy, uy-xo'jalik asboblari, qurol-yarog'lar haqida bo'lishi mumkin. Bundan tashqari topishmoqlar o'zining yaratilish davriga ko'ra an'anaviy topishmoqlar va yangi, zamonaviy topishmoqlar sifatida bir-biridan farqlanadi. An'anaviy topishmoqlar zamirida xalqimizning tarixi, qadriyatlari aks etgan bo'lsa, zamonaviy topishmoqlarda kundalik turmushimizdagi o'zgarishlar, fan va texnika yutuqlari o'z ifodasini topgan. Masalan: Bir parcha patir, Olamga tatir. (Oy); Zar gilam, zar-zar gilam, Ko'taray desam, og'ir gilam. (Yer); Teg desam, tegmaydi, Tegma desam, tegadi. Kel, kel desam, kelmaydi. Kelma desam, keladi. (Lab);, Yer tagida oltin qoziq.(Sabzi)

Maqol va topishmoqlar, o'zlarining o'xshash va farqli jihatlaridan qat'i nazar, inson tarbiyasiga xizmat qiladi.

Sanamalar. Yosh yigit-qizlar o'rtasida sanamalarni bilmaydiganlar bo'lmasa kerak. Yoshligimizda o'ynagan quvlashmachoq, bekinmachoq va boshqa o'yinlarda kimdir xizmatda qolishi kerak bo'lgan. Guruh ikkiga bo'linganda, xolislik talab qilingan. Ana shunday vaziyatlarda sanamalarga murojaat qilganmiz. Sanamalar matnlarida esa biz e'tibor qilmaganimiz holda bir necha maqsadlar nazarda tutilgan. Avvalo, kichikroq yoshda ekanimizda sanashni o'rganganmiz. Undan tashqari qofiyalar, istioralar, sifatlashlar yodimizda saqlanib qolgan. Olimlarning ma'lumot berishicha, sanamalar turli xalqlar og'zaki ijodida keng tarqalgan janrdir. Ruslarda "schitalka", tojiklarda "Shumurak", turkmanlarda "sanavoch", tatarlarda "sanashu" deb ataladi. Ulardagi umumiylik sanash bilan bog'liqlikda va matndagi qofiyaga rioya qilishda namoyon bo'ladi. Bu xususiyat ularni yodlashda qo'l keladi: Qovun palak,

Guvak otdi.

Guvak emas,

Chuvak otdi.

Chuvak qovun

Shirin ekan,

Safdan chiqsin

Qo'lim tekkan.

O'zbek bolalari folklori tadqiqotchisi O.Safarov ma'lumotiga qaraganda, 800 misraga yaqin hajmda 150 dan ortiq sanamalar aniqlangan. Yuqoridagi raqamlardan o'zbek folklorining bu turi ham naqadar boy va rang-barang ekani ma'lum bo'ladi.

Tez aytishlar olimlar fikricha, bolalar folkloriga nisbatan keyin qo'shilgan janr hisoblanadi. Ular avval "tutal", "chalg'ituv", "chalish", "adashish" atamaları bilan mashhur bo'lgan. "Tez aytish" esa keyin qo'llangan. Vaqt o'tgani sari bu janr kattalardan bolalar folkloriga o'tgan. Qadimgi qoidalarga binoan tez aytishni bir nafas olish bilan aytish talab qilingan. Qadimgi tez aytishlarda esa talaffuz qilish

oson bo‘lmagan so‘zlar soni ko‘p bo‘lgan. Shuning uchun ularni avvallari kattalar folkloriga mansub beradilar. Yosh bola ularni bir nafasda aytolmagan. Hozirgi kunda bunday namunalar bolalardagi ayrim tovushlarni talaffuz qilish qiyin ekaniga ko‘ra tanlanadi. Masalan, “r”, “l”, “s”, “Sh”, “ch” tovushlarini aniq aytish mo‘ljallangan tez aytishlardan ko‘proq foydalaniladi:

Charxim chakalak, Tanobi charxim chakalak, charximda gunoh yo‘g‘u, O‘zim hakalak. “R” tovushi talaffuziga bag‘ishlangan quyidagi tez aytishga e‘tibor bering: “Bir tup tut. Bir tup turp. Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp. Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdi. Bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdi. Bir tup tutning tomirini turtib turgan bir tup turpning tomirini bir tup tutning tomiri turtib turibdi. Bir tup turpning tomirini turtib turgan bir tup tutning tomirini bir tup turpning tomiri turtib turibdi”. Biz yuqorida tez aytish kattalar folkloriga mansub bo‘lgan deganimizda ana shu matnni nazarda tutgan edik. Bu janr ko‘proq bolalar o‘rtasida aytiladigan bo‘lganidan so‘ng matn hajmi qisqargan. Xususan, quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘lgan:

Oq choynakka ko‘k qopqoq,

Ko‘k choynakka oq qopqoq.

Qishda kishmish pishmasmish,

Pishsa kishmish, qishmasmish.

Ba‘zan tez aytishlarda o‘ziga xos shirin kulgili vaziyatlar ham aks etishi mumkin: “Namanganda bor ekan bir usta Musa puch pistapurush. O‘sha usta Musa puch pistapurushning oltmish qop puch pistasi bor ekan. Oltmish qop puch pistasi bo‘lsa ham o‘sha usta Musa puch pistapurush. Oltmish qop puch pistasi bo‘lmasa ham o‘sha usta Musa puch pistapurush”. Aytish mumkinki, xalq ijodidagi tez aytish shoirlarimizga ham ta’sir qildi. Ko‘p shoirlarning tez aytishlari televidenie, radio, kichik sinflar uchun tuzilgan darslik va qo‘llanmalardan o‘rin olmoqda.

Bolalar qo‘shiqlari ko‘pincha o‘yin va jismoniy harakatlar bilan aytiladi. “*Boychechak*”, “*Oftob chiqdi olamga*”, “*Oq terakmi, ko‘k terak*”, “*Chittigul*”, “*Laylak keldi, yoz bo‘ldi*”, “*Yomg‘ir yog‘aloq*” kabi o‘nlab qo‘shiqlar bolalar ijrosi repertuarini tashkil etadi. E‘tibor bergan bo‘lsangiz, ularning deyarli

hammasi yil fasllari bilan bog‘liqdir. Ular mazmuniga ko‘ra bahor va yoz kunlari aytiladi. Xususan, “Boychechak” qish bo‘yi qora qor ostida sovuqdan zerikkan yerning quyosh nurlaridan bahra olib bag‘ridan chiqargan birinchi chechakka bag‘ishlanadi. Uni bitta yakkaxon qo‘shiqchi boshlaydi, bolalar naqarotga qo‘shiladilar:

Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayroni.
Ayroningdan bermasang,
Qozon-tovog‘ing vayroni.

Naqarot: Qattiq yerdan qaqalab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Professor O.Safarov bolalar folklorining taniqli mutaxassisi sifatida juda ko‘p qo‘shiq namunalarini yozib olgan. Ana shu yozilgan asarlar qatorida quyidagilar qayd etilgan:

Shaftoli pishdi,
Tagiga tushdi.
Xomini uzdim
Dadam urishdi.

Yoki:

Laylak keldi, yoz bo‘ldi,
Qanoti qog‘oz bo‘ldi.
Laylak boradi toqqa,
Quloqlarida halqa.
Halqani op qochaylik,
El boshiga sochaylik.
Elning murodi kulsin,
Laylak balandroq uchsini.

Nisbatan kam bo‘lsa-da, qish fasli bilan bog‘liq qo‘shiqlar ham uchraydi: Qor yog‘di gupillatib,
Qor buva to‘qqillatib,

Kirib keldi maktabga

Soqolin selkillatib. Bolalar qo'shiqlari bulbul, chumchuq, qirg'iy, qarg'a, kaklik, musicha kabi qushlarga va echki, qo'zi, quyon, it kabi hayvonlarga atab to'qilgan lirik parchalardan iboratdir:

Ag'am-bag'am tishini ko'rdim,

Yugurganda tilini ko'rdim.

U chopardi dukur-dukur,

Quyon ekan harom o'lgur.

Shunday qilib, og'zaki ijodimizdagi xalq qo'shiqlarining tarkibiy qismini tashkil qiluvchi bolalar qo'shiqlari ko'pincha yil fasllariga, qush va hayvonlarga, tabiatdagi o'zgarishlarga bag'ishlangan bo'lib, mazkur narsa-predmetlar va vatan manzaralariga nisbatan munosabatlarning badiiy ifodasi sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda xalq o'g'zaki ijodi janri namunalari o'zlarining o'xshash va farqli jihatlaridan qat'i nazar, inson tarbiyasiga xizmat qiladi, uni ziyraklik va zukkolikka undaydi.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH YO'LLARI

2.1 Boshlangich sinflarda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati

Ma'naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o'rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma'naviy qashshoq kimsa hayotda ro'y berayotgan voqealarga loqayd bo'ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo'lmaz oqibatlariga olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o'nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. O'tgan asrgacha bugungi kundagi matbuot, o'quv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televidenie, internet kabi ta'lim, ma'rifat tizimi bo'lmagan. Bu vazifalarni bajarish, asosan, xalq og'zaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Natijada, xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasi zaminini tashkil etgan.

To'g'ri, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ham xalq og'zaki ijodidan namunalar beriladi .

Ma'lum bo'ladiki, madaniyat, san'at, til xalqning xalq sifatida ravnaq topishining bosh omili ekan. Xalq ijodi esa madaniyat, san'at, tilning asosini tashkil etuvchi tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da "Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar" alohida bo'lim sifatida tasdiqlanishi bejiz emas. Unda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi ta'kidlanadi.

Qadimdan ota-bobolarimiz o'z orzu-umidlarini turmush haqiqatlari bilan uyg'unlashtirgan holda go'zal mo'jizakor manzaraga, sodda va o'ta teran mazmunga ega ertaklarni yaratganlar. Hayot haqiqati va kishilarning ruhi, psixologiyasini o'zida aks ettirgan ertaklarning badiiy kuchi hanuzgacha kattalar va kichiklar uchun ham birday qiziqarli, jozibali xalq kitobi sifatida ta'sir etib kelmoqda.

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar, deb xalqimiz bejizga aytishmagan. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Ertaklarda voqealar asosan mo'jizali tarzda ifodalanadi. Binobarin, mo'jiza yoki fantaziya voqea va hodisalarni hayot bilan bog'lab, haqiqat, ozodlik, to'g'rilik, odamiylik kabi didaktik g'oyalarni tashviq etadi, syujet rivojiga kuch bag'ishlaydi, tinglovchi e'tiborini o'ziga jalb qilib, ajoyibotlar olamiga olib kiradi, shirin tuyg'ular dunyosiga g'arq etadi.

Umumlashtirilgan holda ertakka xos quyidagicha ta'rif e'tirof etilgan: “Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deb ataladi.”

Darhaqiqat, ertaklar bolalarga mo'ljallangan ijod turi bo'lib, ularni tuzilishi jihatidan bolalarning yosh xususiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

Kichik yoshdagi bolalar ertaklari (2 yoshdan 6 yoshgacha);

O'rta yoshdagi bolalar ertaklari (7 yoshdan 11 yoshgacha);

O'smir yoshdagi bolalar ertaklari (12 yoshdan 16 yoshgacha).

Kichik yoshdagi (2 yoshdan 6 yoshgacha) bolalarga aytiladigan ertaklarning voqeasi juda sodda, ishtirok etuvchi ertak qahramonlari va personajlarining ham soni 3-4 nafardan oshmaydi. Ularning ham aksariyati bolalarga tanish uy hayvonlari, parrandalari, qushlar yoki o'rmon hayvonlari, Shuningdek, oila a'zolariga o'xshagan nomlari tanish (ota-ona, bobo-buvi, tog'a va shu kabi) kishilardan iborat. Bunday ertaklar xususan, bolalarni ovutish, fikrini biror narsaga jalb qilish, biror foydali odatga o'rgatish, ularga notanish hayvonlarning o'zini, xarakterini tanishtirish maqsadida aytiladi. Masalan, “Qarg'avoy”, “Ur, to'qmoq”, “Oltin tarvuz” kabi ertaklarda go'dakning olamdagi mavjudotni ongli ravishda anglab borishiga yordam beradi. Chunki bola atrof-muhit bilan tanisha boshlashi

mobaynida dastlab hayvonlarga juda qiziqib, sinchkov nazar tashlaydi, ko`rgan hayvonlarni parrandalarni ushlab ko`rishga intiladi. Sababi, bolaning aksariyat o`yinchoqlari hayvonlar shaklidan iborat. Bu yoshdagi bolalarga ertak voqeasi tovush tembriga ko`ra ohang yordamida, ko`z, qo`l, gavda harakatlari orqali hikoya qilinadi. Shuningdek, ertak aytuvchi bolalarning diqqatini bir joyga to`plash, qiziqtirish va tinglashga tayyorlash uchun ertak oldi deb atalmish an`anaviy qolip jumalardan foydalanishi zarur. An`anaviy qoliplardan biri bu boshlamadir. Boshlanma ertakning dastlabki qismini ta`riflaydi. Ertaklarda an`anaviy boshlama voqeaning qay vaqt bo`lib o`tganini bildirmaydi, noaniq, umumiy tarzda ifodalaydi. Ertak aytuvchi kichik va o`rta yoshdagi bolalarga mo`ljallangan har qanday ertaklarni tinglovchi diqqatini tezda o`ziga jalb qilishi uchun “Bir bor ekan, bir yo`q ekan, och ekan, to`q ekan, bo`ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg`a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, g`oz karnaychi ekan, o`rdak surnaychi ekan, tovuq qoq etdi, bilmadim qaqqa ketdi” – tarzida an`anaviy boshlama qolipdan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

*O`rta yoshdagi (7 yoshdan 11 yoshgacha) bolalar ertaklari.* Bu yoshdagi bolalarning xotirasi, fikrlash doirasi ancha takomillashgan bo`lib, ular oila, turmush haqida qisman tushunchaga ega bo`ladilar. Ularga yanada fikran chuqurroq, biroz bo`lsa-da o`ylab, xulosa chiqarishga undaydigan ertaklar tavsiya etiladi. Bu yoshdagi bolalar ertaklarining hajmi ham kattalashib boradi, mazmun-mohiyati kengayadi, sodda fikrlar sekin-asta chuqurlashadi, bolalar voqea-hodisalarning ikkinchi - ko`chma ma`nolarini ham anglay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar majoz asosiga qurilgan hayvonlar haqidagi ertaklar va ixcham syujet asosiga qurilgan sehrli ertaklarga juda qiziqadilar. Masalan, “Maymun va duradgor”(16. 60) ertagida o`ziga aloqador bo`lmagan ishga aralashishning oqibati nima bo`lishi aytilsa, “Rostgo`y bola” (16. 62) “Uch o`g`il” (16.66) ertagida to`g`risozlik, rostgo`ylik g`oyasi ilgari surilgan.

Bunday ertaklar bolalarga qorong`i va yorug`lik, sovuqlik va issiqlik, yomonlik va yaxshilik, yolg`on so`z va to`g`ri so`z, zulm va adolat haqidagi tushunchalarni anglatish bilan birga, yaxshi va yomon kishilar obrazlarini ham yaqqol tasvirlaydi.

Tashqi dunyo bolalarning ko'z o'ngida kengayib, oddiy tasvirlar, voqea – hodisalarning sodda holatlari murakkablashib boradi.

Ertaklar, avvalo, bolalarning jonivor hayvonlarga, parrandalarga bo'lgan qiziqishi, mehrini oshirsa, ikkinchidan, mehnat orqali farovon, tinch, osoyishta turmush kechirish mumkinligi uqtiriladi. Ertaklarning yakuni qissadan hissa chiqarishga undaydi. Ya'ni, “Yaxshilik qilsang – yaxshilik topasan, yomonlik qilsang – jazo olasan”, “Mehnat qilsang-rohat ko'rasan”, “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik” kabi maqollarning ma'nosi izohlansa, bolalar har bir o'qigan ertaklarining xulosasini maqollar bilan izohlashga harakat qiladilar. Bu bolalarning tafakkurini charxlash bilan birga, ko'proq maqollar yod olishiga ham yordam beradi.

O'smir yoshdagi (12 yoshdan 16 yoshgacha) bolalar ertaklari. Bu davr yoshidagi bolalarda katta ishlarni amalga oshirish, qahramonliklarga intilish, fantaziyaga qiziqish yuqori bo'ladi. Ular ko'proq aql va tafakkurni charxlaydigan, bahodirlik, afsonaviy, sarguzasht xarakterdagi ertaklarni qiziqib, sevib o'qiydilar.

Ertak qahramoni aql bilan ish tutib, qiyin jumboqlarni yechadi, tadbir bilan ish tutib, dahshatli kuchlarni yengadi. Masalan, “Susambil”, “Uch og'a-ini botirlar” ertaklarida sujet tuzilishi ixcham voqea va hodisalardan iboratligi, sodda ifodalanishi o'qimishlilikni ta'minlaydi. Ma'lum bo'ladiki, qahramon ismi berilsa ham, berilmasa ham asosiy maqsad ertakdagi hikoya qilinayotgan voqea oddiy maishiy turmush sharoitida kechganini ta'kidlashdan iborat bo'ladi. Keyingi maqsad asar ishtirokchilari boshidan kechirgan turmush lavhalari vositasida yosh avlodning barkamol inson bo'lib etishuvi uchun tarbiyaviy zamin hozirlashdan iboratdir. «Uch og'a-ini botirlar» ertagida mo'ysafid ota o'z o'g'illarini qo'rqmas, jasur qilib o'stiradi. O'z farzandlarini baxt topish safariga otlantirar ekan, ularga uchta maslahat beradi: «To'g'ri bo'ling, bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo'lmang, baxtsiz bo'lmaysiz». Bu pand mohiyatini tahlil qilsak, hayotga tayyorlanishi lozim insonning haqiqiy amal qilishi kerak hisoblangan fazilatlar aks etganiga ishonch hosil qilamiz.

Bu ertaklarda tarbiyaviylik, ma'naviy yetuklik, komillik, odamiylik, fikran teranlik ustivor darajada tavsiflanadi.

Rivoyatlar mazmun yo'nalishiga ko'ra tarixiy voqelar, ularda ishtirok etgan shaxslar jasorati yoki xiyonati asosida yoki yurtimiz viloyatlaridagi o'rin-joylarning nomlanishini izohlash maqsadida yaratilgan turlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi yurti ozodligi va mustaqilligi uchun jonini qurbon qilgan el farzandlari mardligi, shu bilan birga o'zining o'tkinchi hirsiy nafsini yo'lida vataniga xiyonat qilgan Dalvarzin, Guldursunga o'xshagan xiyonatkor shaxslar kirdikorlari hikoya qilinadi. Mard, jasurlarning ishlari ham, xoinlarning xiyonati ham unutilmaydi. O'zbekiston – dunyoda o'zining ilmiy kashfiyotlari, fan rivojiga qo'shgan hissalarini, badiiy ijodda yaratgan asarlari bilan mashhur farzandlar yurti. Imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Behzod, Boburdek ulug' insonlar nomini sharaflovchi o'nlab rivoyatlar xalq qalbida saqlanib kelmoqda. Masalan, 3-o'qish darsligidagi *“Ibn Sinoning shogirdlari”* (12.128) rivoyatida bilimdonligi va donoligi, *“Bobur va kabutar”* (12.60) rivoyatida Boburning ziyrakligi alohida ta'kidlab ko'rsatilgan.

Maqol va topishmoq - bu ikki tushuncha inson tafakkurining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Maqollar insonni axloq-odobga o'rgatsa, topishmoqlar uni mantiqiy fikrlashga, topqirlikka, hozirjavoblikka undaydi. Maqol inson nutqini bezaydi (xalqimizda «So'z ko'rki maqol», deb bejiz aytilmagan), uning ta'sir kuchini oshiradi. Biror-bir fikrni uqtirishda ishlatilgan maqol uni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. Maqollar pand-nasihatlari, tarbiyaviy suhbatlarda o'git sifatida ham keladi. Shuning uchun uni «Otalar so'zi» ham deyishadi. Buning boisi, har bir maqol ota-bobolarimiz tomonidan yaratilib, bir necha mingyilliklar davomida sayqal topib kelayotgani, yaxshilik, ezgu ishlarga undaydigan bebaho ma'naviy boyligimiz ekanidir. Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli fikr aytiladi. Bu fikr rad etib bo'lmaydigan hukm shaklida keltiriladi. Masalan, *“Ona yurti omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas”*, *«Ona yurti - oltin beshiging»*, *«Kishi yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida*

gado bo'lib», «Bulbul chamanni sevar, odam - vatanni» kabi maqollarni hech bir e'tirozsiz qabul qilamiz. Chunki bu maqollarda bolalarni ona-Vatanni sevishga, Vatanga muhabbat Onaga muhabbat kabi muqaddas va yuksak tuyg'uligini uqdirishga qaratilgan.

Ma'lumki, ko'plab maqollardagi yana bir xususiyat ularda so'zlarning qofiyadosh bo'lib kelishidir. Masalan, «Yuz ko'rki soqol, so'z ko'rki maqol», «Aql - yoshdan, odob - boshdan». Shu xislati bilan maqollar topishmoqlarga o'xshab ketadi. «Bir parcha patir, olamga tatir» (oy) topishmog'idagi «patir» va «tatir» so'zlaridek, maqoldagi «yoshdan» va «boshdan» so'zlari bir-biriga qofiyadoshdir. Biroq bu o'xshashlik tashqi shaklda ko'rinadi. Mazmunan ular o'zida boshqa-boshqa ma'nolarni tashiydi. Maqol ibratli fikrni anglatga, topishmoq kishini jumboqda yashiringan ma'noni topishga undaydi, idrokini sinaydi.

Xalq maqollari - boyligimiz. Ota-bobolarimizning siz bilan bizga qoldirgan xazinalaridan biridir. Ulardan kerak o'rinlarda foydalanishni odat qilishimiz kerak. Shunda ular butun umrimiz davomida hamrohimiz bo'ladi. Har bir gapirgan gapning salmog'i oshadi. Sermazmun, ta'sirchan, keskir bo'ladi.

Topishmoqlar kishining tasavvuri va tafakkurini o'stiradi, ayniqsa, bolalarni topag'on bo'lishga, hozirjavoblikka o'rgatadi. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari, jumladan, doston va ertaklar ichida ham uchraydi. Ular doston va ertaklar mazmunini boyitib, ularning qiziqarliligini, o'qishliligini ta'minlaydi. Xalq og'zaki ijodidagi doston yoki ertak qahramonlari bir-birlarining aqli va farosatini topishmoqlar orqali sinaydilar. Bu hodisa ko'proq ertaklarda uchraydi.

Topishmoqlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, ular olam va odam bilan bog'liq barcha narsa va hodisalarni qamrab oladi.

Maqol va topishmoqlar, o'zlarining o'xshash va farqli jihatlaridan qat'i nazar, inson tarbiyasiga xizmat qiladi, uni ziyraklik va zukkolikka undaydi.

Yoshligimizda o'ynagan quvlashmachoq, bekinmachoq va boshqa o'yinlarda kimdir xizmatda qolishi kerak bo'lgan. Guruh ikkiga bo'linganda, xolislik talab qilingan. Shuningdek, sanashni o'rganayotganda sanamalarga murojaat qilganmiz.

Sanamalar va tez aytishlar bola nutqining sofligiga, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga yordam bersa, qo'shiqlarda xalqning orzu-umidlari, zavq-shavqi, quvonch va iztiroblari mujassamlashgan.

Shunday qilib, o'zbekning butun fazilati, falsafasi, donoligi, dunyoqarashi, oliy himmatliligi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati maqollarda aks etgan. Insondagi mehnatga muhabbat, ishq tuyg'ulari qo'shiqlarda eng go'zal ichki kechinmalar sifatida ifodalangan. Ertaklarda xalqimizning eng oliy orzu-havaslari namoyon bo'ladi. Ular bilan tanishgan yosh avlod o'zbek uchun vatan, xalq, oila, mehnat, ilm, g'urur naqadar muqaddas tushunchalar ekanini anglab etadi.

2.2.Ertak, maqol matnini o'qitishda interfaol ta'lim

“O'qish kitobi”dagi turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she'r matnidan, tubdan farq qiladi. Topishmoqlarda predmet, voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. Boshlang'ich sinflarda oqish darslarida o'quvchilarning nutqini oshirish vositalaridan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalardir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ertak matnini qayta hikoyalash boshqa janrdagi asarlarni hikoyalashga nisbatan ancha oson hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shilib ketadi.

Ertakning o'tkir, maroqli sujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining yaxshilikning

doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z kishilar timsoli bo'ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundaki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, vovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Masalan, „Halollik“ ertagida (12.30) asosiy fikr kambag'allarga yordam ko'rsatish, o'z mehnati bilan hayot kechirish bo'lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, „Hiylagarning jazosi“ ertagida esa (8.57) soddadilning to'g'riligi hiylagarning makri ustidan g'olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g'oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to'g'riso'zlilikning g'alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g'alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga iShonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida „kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)“, „Nima uchun?“, „... nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)“, „Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)“ kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib xulosaga keladilar.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. „Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak“ (A.Obidjon) (8.70), „Ko'zacha bilan tulki“(8.51) kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning

odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o'qib tahlil qilganda, barcha ishlar matnning mazmunini yaxshi idrok etishga, sujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavvur etishga yo'naltiriladi. Bunda tanlab o'qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta.

Masalan, „Odobli bo'lish osonmi?“ (A. Obidjon) (8.113) ertagini mazmunini o'zlashtirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Sichqonchaning onasi bilan qilgan suhbatini o'qing. Sichqonchaning „Odobli bo'lish uchun nimalar qilish kerak?“ degan savoliga onasi qanday javob qaytarganligini so'zlab bering.

2. Sichqonchaning mushuk bilan uchrashgan holati aks ettirilgan o'rinni topib o'qing. Nima uchun „Shum Baroq“ ko'zidagi yovuzlik birdaniga so'nadi?

3. Echki nima uchun Sichqonchani „Kam bo'lma“ deb duo qiladi? Shu o'rinni topib o'qing.

Ertakni tahlil qilishning oxirgi bosqichida „Ertakning sizga juda yoqqan joyini topib o'qing“, „Nima uchun aynan shu joyi yoqqanini ayting“, „Hayotingizda ertakdagi voqealarga o'xshash voqealar bo'lganmi?“ kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, „Davlat“(4-s.49-b), „Ilm afzal“(4-s.44-b), „Hiylagarning jazosi“(4-s.57-b), „Hunarsiz kishi o'limga yaqin“(4-s.61-b) kabi maishiy ertaklarni ham o'qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o'z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o'quvchilar ertakni o'qigach, o'tmishdagi xalq hayotini, o'y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim hatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar

va Shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar.

„*Davlat*“ ertagi (8.49) oddiy turmushga tegishli hodisalarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakni o'qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofimizdagi tabiatni, borliqni qanday tasavvur etishlari haqida suhbat o'tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o'zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. „*Davlat*“ ertagi matni ustida ishlash jarayonida o'quvchilar „*Dehqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan?*“, „*Nima uchun Davlat dehqonning xonadonidan ketishni istamaydi?*“ kabi savollarga javob topish orqali ertak qahramonlarini baholaydilar, ahil va inoq bo'lib, halol mehnat qilish lozim degan xulosaga keladilar.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina etnas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

O'quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin.

O'quvchi ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o'quvchilarning o'z nutqida til vositalaridan o'rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak tilida shunday so'z va iboralar borki, ular bolaga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, „Yo'lbars, Tulki va Bo'ri“ ertagida „Tog' echkisi siz *ulug'imizniki* bo'lsin“, „Quyon siz *podshohimizning* ertalabki *nonushtangiz* bo'lsin“, „Kiyik kechqurungi *taomingiz*, qo'y kunduzgi *xo'ragingiz* bo'lsin“ kabi gaplar tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratilib, ertakni so'zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim. Masalan, „*Rostgo'y bola*“ (16.

62) ertagida bola o'z rostgo'yligi bilan podshoga ma'qul bo'lganligi hikoya qilingan. Bu ertakning yangi pedagogik texnologiya asosida o'tish namunasini quyida keltiramiz:

Mavzu: O'zbek xalq ertagi «Rostgo'y bola»

Darsning maqsadi:

1. To'g'ri, tez va ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish.
2. Matn ustida ishlash, tahlil qilish ko'nikmasini mustahkamlash, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish.
3. O'quvchilar shaxsida to'g'riso'zlik, rostgo'ylik kabi ijobiy sifatlarni tarbiyalash.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

Dars metodi: izohli o'qish, mustaqil ish metodi, guruhlarda ishlash.

Darsning shiori:

Biz nimaiki qilmaylik,
Barchasi zarur, kerak.
Bilim egallash uchun
Tinimsiz o'qish kerak.

Darsning borishi:

1 - modul.

Uyga vazifani tekshirish.

"Maymun va duradgor" haqidagi ertak. Xattaxta oldiga lkki o'quvchi chaqiriladi va ular galma - galdan ertakni o'qib, mazmunini so'zlaydilar. Duradgor kim? U nima ish qiladi? degan savol beriladi va o'quvchilarning javoblari to'ldiriladi.

2 - modul. Quvnoq daqiqa.

O'qituvchi: Yaxshi o'qish uchun, yaxshi nafas olish kerak.

1) Nafas olishga oid mashqlar:

«Choyni sovit», «Gulni hidla», «Sharni shishir», «Changni hayda».

2) Ovoz mashqi; tovush mashqi: a, o, u, e, i, o'.

Quyidagi she'ni eshitib bugun qanday mavzu bilan tanishishimizni bilib olarsiz. Yaxshilab e'tibor qiling: To'g'ri so'z bola. H.H.Niyoziy. (Qisqartirilgani)

Kelmog'ida maktabidan bir o'g'il,
 To'xta debon ikki kishi to'sdi yo'l.
 Dedi biri:" Tanga berurman sanga
 So'zla bir og'izgina yolg'on manga"
 Berdi o'g'il fikr ila shirin javob:
 "so'zlang ako, qomatingizga qarab.
 Bu so'zingiz aslida yolg'on erur
 Tangaga yolg'onni kim olg'on erur".

Quyidagi skanerga qarab bugungi o'rganadigan mavzumiz nomini va unga doir so'zlarni toping.

b	r	o	s	t	g	o'	y	b	R
o	o	b	o	l	a	ya	o'	o	O
l	s	yo	l	g'	o	n	r	l	S
a	t	a	n	g	a	k	k	a	T
r	g	k	i	Sh	i	a	k	o	G
o	o'	m	a	k	t	a	b	yu	o'
s	y	s	o'	z	i	ng	i	z	Y
t	o	g'	i	z	g	i	n	a	A
g	l	a	r	o	s	t	g	o'	Y
o'	y	s	a	n	g	a	k	i	M

Bu jadvalda rostgo'y (5 ta), bola (3 ta), yolg'on, tanga, kishi, ako, maktab, so'zingiz, og'izgina, sanga, kim so'zlari borligini o'quvchilar topadilar.

3 - modul.

Skanerdagi so'zlarni qatnashtirib gaplar tuzing: Bir og'izgina yolg'on, rostgo'y bola, yolg'onchi kishi sanga tanga berurman, dedi va b. Kimlar shu

soʻzlar vositasida ertak tuzib beradi. Bolalar oʻzlaricha tuzgan ertaklarini soʻzlab beradilar.

Bugungi oʻtadigan ertagimiz nomini topdingizmi? Bolalar aytadilar (Boʻlmasa oʻqituvchi ertak nomini aytadi: "Rostgoʻy bola"). Kelinglar endi ertakni eshitib koʻramiz. Unda baʼzi notanish soʻzlarga duch kelasizlar. Ularning mazmunini sizlarga tushuntiraman: (xattaxtaga oldindan yozib qoʻyilgan boʻlishi ham mumkin)

Podshoh - yurtning boshqaruvchi kishi.

Vazir - podshohning yordamchisi. Tadbir - oʻylab qilingan ish. Xomush - xafa.

4-modul.

Ertakni oʻqituvchi tomonidan oʻqish, maʼlum bir qismini oʻquvchilar davom ettirishi mumkin.

- Siz yolgʻon gapirgan bolalarni hayotda uchratganmisiz? (Oʻquvchilar javoblari eshitiladi). Rost gapirishning ahamiyatini bilasizmi? Oʻqituvchi rost gapirishning ahamiyati haqida oʻquvchilarning yoshiga mos tushuncha beradi va xalq maqollaridan aytadi (Masalan, "Boshingga qilich kelsa-da, rost gapir"... qolganini oʻquvchilar davom ettiradilar).

5 -modul. Mustaqil oʻqish.

Usul: oʻqituvchi oʻquvchilar bilan birga ovoz chiqarib oʻqiy boshlaydi (oʻquvchilar faqat koʻz bilan oʻqiydilar), oʻqituvchi jim boʻlib, oʻqishni ichida davom ettiradi, oʻquvchilar esa ovoz chiqarib oʻqiydilar, keyin yana oʻqituvchi ovoz chiqarib oʻqiydi, oʻquvchilar koʻz bilan oʻqiydilar va shunday oʻqish ertak oxirigacha davom etadi

Oʻqish oldidan topshiriq: xattaxtada yozilgan soʻzlarni ertakda berilganday izchillikda, soʻzlar qoʻshib yozing:

- Qadimda podshoh boʻlgan.
- Xomush boʻlib yurgan.
- Vazirning maslahati.
- gul urugʻi,

- farzand qilib olmoqchi.
- vaqt o'tibdi.
- Shahar aylanibdi.
- gullarni ko'rib o'taveribdi.
- ko'zi tushibdi.
- gullar qani?
- qaynattirgan.

6 - modul.

Matnni tahlil qilish uchun savollar.

- Ertak qahramonlari kimlar?

- Quyidagi so'zlar kim haqida yozilgan: xomush. farzandi yo'q, gul urug'i tarqattiribdi (podshoh).

-Yaxshi farzand topish yo'lini ertak qahramonlaridan kim maslahat beribdi? (vazir)

- Qanday yo'l bilan rostgo'y, aqlli bola tanlandi?

- Keyin nima bo'ldi?

- podshoh gul urug'ini nima qilgan ekan?

- Quyidagi hikmatli so'zlardan qaysi biri ertak mazmunini to'ldiradi?

1.Boshingga qilich kelsa ham rost gapir.

2.Yolg'onning umri qisqa.

3.Boshingga nima kelsa tilingdan kelur.

4.To'g'ri baxt keltirar.

(To'g'ri gapirgani uchun bola podshohga farzand bo'ldi.).

Markazlarda ishlash.

Sinf jamoasi 5-7 kishidan tahlilchilar, o'quvchilar, tilshunoslar, tadqiqotchilar (boshqalar ham bo'lishi mumkin) kabi guruhlariga bo'linib markazlarda ishlaydilar.

O'qish markazi: «Kitoblar olami». I guruh - o'quvchilar.

Topshiriq: Ertakdagi ko'rsatilgan qismni o'qib, uni tiklash (Ertak kserokopiya qilinib, 7 qismga bo'linadi. Har bir qismi kamalakning bir rangiga

mos keladigan rangdagi qog'ozlarga yopishtiriladi. O'quvchilar bo'lingan matnni tiklab, to'liq javobni va kamalak rangini hosil qiladilar).

2 guruh - tahlilchilar.

Topshiriq: ijodiy daftarda ishlash (matnga savollar qo'yish)

Yozuv markazi: «ijodiy ish».

Har bir o'quvchining daftarida qahramonlar hislatlariga tegishli so'zlar yozilgan: farzandi yo'q, xomush, ko'p bolalarni ko'rdi, gulsiz tuvak ushlab o'tirgan bolakay.

Topshiriq: Qahramonlarga taalluqli xislatlarni o'qib, kimga tegishliligini ayting. Ertak qahramonlaridan kimga tegishli gap yo'qligini aniqlang (vazirga tegishli gap yo'q). O'zingiz tanlang.

Ilmiy-tadqiqot markazi.

Topshiriq: Ertakdagi qahramonlarga doir sifatlarni yozish va ularga taalluqli sifatlarni qahramon nomi bilan birga yozing.

Natijada quyidagi jadval hosil bo'ladi: Xomush podshoh. Aqlli vazir. Rostgo'y bola. Yolg'onchi bolalar. Gulsiz tuvak. Prezedentatsiya:

Har bir markazdan bir bola chiqib, o'z ishlarining yakuni haqida so'zlaydilar.

O'qituvchi:

Qarang xattaxtamizda

Hosil bo'ldi kamalak.

Quvonchimiz cheksizdir

Chunki baxtlimiz beshak!

Uyga vazifa.

Har bir guruhga tegishli vazifalar alohida-alohida aytiladi. (bular ijodiy daftarda ishlash, diafilmlar tuzish, matndan bosh g'oyalarni ajratib yozish, ertakdan olgan taassurotlari asosida rasm chizish va h.)

Darsni xulosalash.

- Bu darsdan qanday yangilik o'rgandingiz?
- Sizga nima yoqdi?

- Nima sizga yoqmadi, siz qanday bo'lishini xohlar edingiz?

Demak dars yakunida ertak g'oyasiga mos shunday xulosaga kelinadi: „Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir". O'quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o'zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:


- Ertak bilan tanishtirish;
- O'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
- O'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi va hokazo.
- Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;
- Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);
- Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);
- Ertakni so'zlab berish;
- Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochish);
- Ma'lum topshiriq asosida ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar);
- Vazifani tekshirish va yakunlash;
- Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

ERTAK O'TISH DARSI NAMUNASI

Mavzu. Kumush qish.

O'quv materiali. Rangin qorlar (Olloyor).

Darsning maqsadi:



1. O'quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini boyitish.
2. Tabiatdan zavq olishga, unga zarar keltirmaslikka o'rgatish.
3. O'quvchilarning mustaqil frklash qobiliyatlarini o'stirish, xotirasini mustahkamlash.

4. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, o'quvchilar lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

Dars metodi: izohli o'qish, mustaqil ish metodi, guruhlarda ishlash.

Darsning jihozi: qog'oz, flomaster, yelim, qisqich, qaychi, mikrotestlar, akvarium, baliqlar, rag'batlantirish uchun jetonlar.

Sinf sharoiti. O'qituvchi turli usullar bilan o'quvchilarni guruhlariga ajratadi. Sinfdagi partalar doira shaklida qo'yib chiqiladi.

Tashkiliy qism. Sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linib o'tiradilar. O'qituvchi guruhlar bilimi teng bo'lishi uchun qizil, ko'k, oq, yashil, sariq rangli doirachalardan foydalanishi mumkin. Bir xil rangdagi doira egalari bir guruhni tashkil etishi aytiladi. Har bir guruh o'ziga nom tanlaydi. Buning uchun o'quvchilarni darsga hozirlash, qiziqtirish, harakatga keltirish, mavzuni mustaqil anglab yetishlari uchun topishmoqlardan foydalanish lozim.

— *Topishmoqning javobini toping: Elakdan un elandi*

Supra unga belandi. (qor)

— Qor qaysi faslda yog'adi?

— O'ylang, bugun o'rganadigan yangi mavzu nima haqida ekan?

Xattaxtaga bo'lim nomi — „Kumush qish" yoziladi. So'ng guruhga qish fasli bilan bog'liq holda nom tanlashlari mustaqil ish qilib beriladi.

1-guruh „Qorparcha",

2-guruh „Ayozbobo",

3-guruh „Qorbobo",

4-guruh „Sumalak",

5-guruh „Qish" deb nomlanishi mumkin.

Har bir guruh a'zolari o'zlariga sardor saylaydi.

Darsning borishi:

I. Chaqiruv bosqichi. Guruhlar taqdimoti.

Bunda har bir guruh o'z nomining ma'nosini izohlaydi, nomini ifodalovchi rasm chizib ko'rsatishi ham mumkin.

1-guruh - „*Qorparcha*“: Men qish faslida dunyoga kelganman. Qir-adir, tog'u tosh, dala-dashtda uchib, o'ynoqlab yerga tomon intilaman. Hammayoqni oq choyshab bilan o'rayman. Men yoqqanda bolalar, hatto kattalar ham qorbo'ron o'ynaydi, qorbobo yasashadi. Qorxat yozishadi.

2-guruh — „*Ayozbobo*“: Men issiq havoni sovutaman. Yerlarni, suvlarni muzlataman. Men tufayli yaxmalaklar paydo bo'ladi. Bolalar yaxmalakda chang'ida, chanada va konkida uchadi. Tarnovlarda sumalaklar paydo bo'ladi.

3-guruh - „*Qorbobo*“: Men qish faslida bolalarning eng sevimli bobosiman. Uzoq-uzoq o'lkalardagi ularga yangi yil bayrami sovg'alarini, Qorqizimni olib kelaman. Ularning kuy-qo'shiqlari, o'yin-kulgilari jaranglagan bayramni birga niShonlayman. Men tufayli Ayozboboning izg'irin, sovuqlarini sezmaydilar. Men ularga kuch-quvvat bag'ishlayman. Hammangizni yangi qutlug' yilingiz bilan tabriklayman.

4-guruh - „*Sumalak*“: Men Ayozbobo bilan Qorparchalarning farzandiman. Tomlarning bo'g'otida qishning quyosh nurlarida yaltirab turaman. U yerdan bolalarning o'yin-kulgilarini tomosha qilaman. Borib bolalarga qo'shilib o'ynay olmaganimdan ko'zlarimdan chak-chak yoshim oqadi. Shu ko'z yoshlarim bilan yerning dardlariga malham bo'laman.

5-guruh - „*Qish*“: Yuqoridagi so'zga chiqqanlarning barchasi mening dilbandlarim. Ular tufayli men borman. Ular tufayli men yilning boshida turaman. Dekabr, yanvar, fevral oylari mening qo'ynimda yashaydi. Ularning har biriga yaxshi kunlarni, bayramlarni taqsimlab berganman.

8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, 31-dekabrda Yangi yil bayrami nishonlanadi. 14-yanvar Harbiylar kuni bayram qilinadi. 9-fevralda ulug' bobomiz Mir Alisher Navoiyning, 14-fevralda Mirzo Boburning tavallud kuni nishonlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarning javobini umumlashtirib, har bir guruhni rag'batlantiradi. Shu tarzda asarni o'qishga tayyorgarlik yakunlanadi.

II. Anglash bosqichi. Bu bosqichda „Rangin qorlar“ (Olloyor)(8.87) ertagi (o'qituvchi qismlarga bo'lib kelgan bo'ladi)ning har bir qismi guruhdagi yaxshi

o'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladi. „Ifodali o'qish" musobaqasi uyushtiriladi. Eng yaxshi o'qigan o'quvchi aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

Shundan so'ng guruhlariga asar matni ichda o'qishga topshiriladi. Guruh o'quvchilariga quyidagi topshiriq beriladi:

- Har bir guruh o'z qismini ichida o'qiydi. Uning mazmuniga va qahramonlariga doir savol-topshiriqlar tuzadi va konvertga solib uzatadi. Tuzilgan savollar izohlanib, rag'batlantirilib boriladi.

III. Fikrlash bosqichi. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. O'quvchilar o'zlari tuzgan savollarga javob beradilar:

— *Qadimda qorbo'ron qanday qorlar bilan o'ynalgan? Nima uchun?*

— *Bo'yoq bozori qancha yilda bir bo'lar ekan?*

— *Nega qorlar oq rangda yog'ar ekan?*

— *Bahoroy qaysi bo'yoqni xarid qilibdi?*

— *Kuz kelganda qozonlarda qaysi boyoqlar bor edi?*

— *Qish kelganda qozonda qaysi bo'yoq qolgan edi?*

— *Yoz uyqudan uyg'onib nimani o'ylab ketibdi?*

— *Yoz qaysi bo'yoqlarni olganini o'ylab toping.*

— *Kuz qaysi bo'yoqlarni o'chirib, uning o'rniga qaysi bo'yoqlarni surtib chiqdi?*

— *Qish o'z zahrini nimalarga sochadigan bo'lib qolibdi?*

2.Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlanadi. Bularni barcha guruh bajaradi. Guruhning faol ishtirokiga qarab ball qo'yiladi.

3.O'qituvchi „Kumush qish" va o'qilgan asar yuzasidan tuzgan test topshiriqlarini guruhlariga tarqatadi.

4.Qish fasli bilan bog'liq maqol va topishmoqlar aytiladi:

Bahor, yoz, kuz qishlaydi, Qish paytida ishlaydi. (Pechka) Qishda yoping'ichingni qo'yma, Yoz o'zing bilasan. (Maqol)

5.O'qituvchi sardorlar uchun asar matni yuzasidan savol-topshiriqlar tuzib keladi. Bu savol-topshiriqlar konvertlarga solinib, guruhlariga beriladi.

1-guruh uchun.

— Ayozbobo deraza oynalariga qanday qilib naqshlar chizadi?

— „Qiyomiga kelib“ birikmasining ma'nosini izohlab bering (ayni me'yoriga, maromiga yetgan holga kelgan).

2-guruh uchun.

— *Falak, libos so'zini qaysi so'zlar bilan almashtirish mumkin?* (falak - osmon gumbazi, osmon, ko'k; libos - kiyim, ust-bosh)

— *Bahoroyning gullari nomini sanab bering.*

3-guruh uchun.

— „Shitob“ so'zining ma'nosini izohlang (harakatning bajarilishidagi tezlik)

— Saraton qaysi payt ekanini ayting.

4-guruh uchun.

— Bahor tabiatida yuz beradigan hodisalarni ayting.

— Za'far, zarg'aldoq ranglar qanday rang? Ranglar ichidan olib ko'rsating. (zarg'aldoq - to'q sariq rang, za'far - sap-sariq, somon rang).

5-guruh uchun.

— Qish chillasi necha kun va unga qaysi vaqt kiradi?

— Ertakda badiiy vositalardan nima ko'proq qo'llanilgan? (jonlantirish)

Darsni yakunlash va tarbiyaviy xulosa chiqarish. Bunda quyidagicha savollar beriladi:

— Dars sizga yoqdimi? Nimasi yoqdi?

— Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?

— Siz qishda tabiatni, tabiat ehsonlarini asrash uchun nimalar qilyapsiz?

So'ngra o'quvchilarning umumiy ballari e'lon qilinadi.

Uyga vazifa: Ertak matnini ifodali qilib o'qishga, unga reja tuzib, shu reja asosida qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish.

MAQOL O'RGANISH DARSINI NAMUNASI

Mavzu. Xalq hikmatlari.

O'quv materiali. Maqollar.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarga maqollarning xususiyatlari haqida ma'lumot berish. Maqollarni ifodali o'qish, mazmunini to'liq anglab yetish malakasini oshirish.
2. Maqollar orqali o'quvchilar ongiga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm olishga qiziqish, kamtarlik, oqko'ngillik tuyg'ularini singdirish.
3. O'quvchilarni ko'rgan-bilgan, eshitgan, o'qiganlari yuzasidan xulosa chiqarishga, o'z nutqida maqollardan foydalanishga o'rgatish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, maqol o'qish darsi.

Darsning borishi

I. Da'vat bosqichi. *Maqsad:* o'quvchilarda yangi mavzuni o'zlashtirishga ishtiyoq uyg'otish, maqollarning xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

Metod: Suhbat metodi.

O'qituvchi xattaxtaga quyidagi maqollarni yozib qo'yadi: „Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar“, „Avval o'yla, keyin so'yla“.

O'qituvchi: Abdulla Avloniyning „Yaxshilik yerda qolmas“ hikoyatini bilasizmi?

Xattaxtaga hikoya mazmuniga mos rasmlar ilinadi. O'qituvchining hikoyasi: „Yaxshilik yerda qolmas“

Bir ari suv ustinda uchib borur edi. Birdan suvga yiqilib ketdi. Qanotlari ho'l bo'lib ucharga kuchi yetmadi. O'lar holatga etdi. Buni kabutar ko'rib, ariga rahmi kelub, darhol bir cho'pni tishlab, suvga tashladi. Bechora ari bu cho'pni kema qilib, suv balosidan qutuldi. Arodan ko'p o'tmadi. Bir bola tuzoq qo'yib, kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rgan zamon kelub, bolaning qulog'ini chaqdi. Bola qulog'ining alamidanda tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi. Kabutar vaqtini g'animat bilib, uchib ketub, o'limdan qutildi.

Topshiriq. Xattaxtdan siz tinglagan hikoyaga mos maqolni topib, belgilang. (O'quvchilar „Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" maqolini belgilaydilar)

— Qolgan maqollarga mos qanday hikoya, ertaklar o'qigansiz? Bilim — aql chirog'i" maqoli mazmuniga mos „Ilm afzal" ertagini o'qiganmiz)

—Maqollarni yana qanday nom bilan atash mumkin? („Dono fikr", „Otalar so'zi" deb atash mumkin.)

—Bugungi darsda nimalarni o'rganar ekanmiz?

—Maqollar nima haqida bo'ladi? Ular nima maqsadda yaratiladi? O'quvchilar javobi to'ldirib, umumlashtiriladi.

Nazariy ma'lumot. Maqollar — xalqning hikmatli ifodalari, hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan dono fikrlarining ixcham shakli. Maqollar she'riy va nasriy tuzilishga ega. Maqollar ona-Vatanni sevishga, uning har bir qarich yerini asrashga, kasb-hunar egallashga, mehnat qilishga, to'g'ri so'z bo'lishga, yaxshi odob va olijanob xulqli bo'lishga chaqiradi.

II. Anglash bosqichi. Maqsad: maqollarni ifodali o'qish, mazmunini misollar bilan ochib berishga o'rgatish.

Metod: Suhbat, guruhlariga bo'linib ishlash.

O'quvchilar 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uchun ma'lum mavzudagi maqollarni o'qib o'rganish topshiriladi.

1. Topshiriq. Ifodali o'qish mashqi o'tkaziladi. Bunda guruhdagi har bir ishtirokchi bittadan maqolni ifodali o'qib beradi.

2. Mustaqil ish. O'quvchilar o'qigan maqollariga darslikdan mos asarlarni tanlab, maqolning ma'nosi bilan asarda aytilayotgan fikrning bog'liqligini izohlab beradilar. Masalan, „Elidan ayrilgan yetti yil yig'lar, Vatandan ayrilgan o'lguncha yig'lar" maqoliga Bobur haqidagi „Hidi, tilimi va mazasidan" asarini misol qilib keltirish mumkin.

Savol-topshiriqlar beriladi:

—Darslikdan „El boshiga tushgan ish, Er boshiga tushgani" maqoliga mos asarni eslang. Shu maqol qaysi asar g'oyasiga mos keladi?

—„Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni yiqar" maqoliga qaysi asar g'oyasi mos? („Mardlik va aql yorug'ligi") va hokazo.

3. Maqollar yuzasidan rebus yechish.

1) [oltin rasmi] [o't rasmi]da bil[in rasmi] [ari rasmi] (rd),[odam rasmi]

— [mehnat qilayotgan kishi rasmida.

2) [ko'z rasmi] (k)i [100] sizning [ko'z rasmi] (ks)i [tuz]siz.

3) Bol[ari rasmi] (rg) [to'r rasmi] (tz) [l]ni yi[qor rasmi](oa), [bol] (oi)imi [bo'r rasmi] (bz) [1000]ni.

III. Fikrlash bosqichi. *Maqsad:* o'quvchilarning mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash, nutqda maqollardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, xulosa chiqarishga o'rgatish

Metod: Aqliy hujum, suhbat metodi.

1. Aqliy hujum.

—Qaysi mavzulardagi maqollarni o'qidingiz?

—Maqollar qanday paydo bo'lgan?

2. Maqollardan yod aytish musobaqasi.

1-guruh. Mehnatsevarlik haqidagi maqollardan ayting.

Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.

2-guruh. Vatanparvarlik haqidagi maqollardan ayting.

Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.

3-guruh. To'g'riso'zlik haqidagi maqollardan ayting.

To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz.

4-guruh. Do'stlik haqidagi maqollardan yod ayting.

Do'st achitib gapirar, dushman – kuldirib.

3. Mustaqil ijodiy ish.

Har bir guruhga bitta maqol beriladi. Guruh ishtirokchilari birgalikda oxiri berilgan maqol bilan xulosalanadigan hikoya tuzib yozishadi. O'qituvchi guruhlariga quyidagi maqollarni bo'lib berishi mumkin:

1) Hamjihatlik - davlat, Yolg'izlik - kulfat.

- 2) Ilmi yo'qning ko'zi yumuq.
- 3) Odobli — elda aziz.
- 4) Hunar bo'lsa qo'lingda, non topilar yo'lingda.

Hikoyani ertak tarzida yoki hayotda uchraydigan biror voqea tarzida yozish bo'yicha maslahat va yordam beriladi. Masalan, „Odobli — elda aziz" maqoli asosida taxminan quyidagicha hikoya tuzish mumkin:

Odiljon oyisi, dadasi bilan xolasinikiga mehmonga bordi. Xolasi mehmonlarni pista-bodom, shirinliklar, kulcha nonlar bilan siyladi. Odiljon mehmonda sho'xlik qilmadi. Shirinliklarga hadeb qo'l cho'zavermadi. Kelgan boshqa mehmonlar Odiljonni „odobli bola ekan" deyishdi. Odiljon „Odobli - elda aziz" ekanligini bilib oldi.

Ushbu topshiriq uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin.

4. Mavzu yuzasidan tarbiyaviy xulosa chiqarish.
 - Bugungi maqollarni o'rganish darsi sizga yoqdimi?
 - Maqollar bolalar tarbiyasiga ta'sir qiladi deb o'ylaysizmi? Ular qanday ta'sir o'tkazishi mumkin?
- Siz bugun o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?
- O'qigan qaysi maqolimiz sizga ham tegishli?
5. Guruhlar to'plagan ballarni e'lon qilish. O'quvchilarni rag'batlantirish.
6. Uyga vazifa. Maqollarni ifodali o'qish va yod olish. Darslikdan o'qilgan ertaklar mazmuniga mos maqollar topib, daftarga yozib kelish

XULOSALAR

Xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. O'zbek xalqi ming yillar davomida yaratgan milliy xazinamizning nodir merosi bo'lgan og'zaki badiiy ijodi hamisha inson kamoloti, yurt farovonligi, jamiyat yetukligi borasida ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Yillar to'zonidan omon-eson o'tib, avlod-ajdodlardan meros qolgan folklor janrlari ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy sohalarida maktab, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda yo'l boshlovchi vazifasini o'taydi. Xalqning turmush tajribalari, kundalik kuzatishlari natijasida yuzaga kelib, o'z isbotini topgan maqollar, naqlarni hayot maktabi darsligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqil O'zbekistonda milliy qadriyatlar tiklanayotgan hozirgi davrda xalq yaratgan merosini yosh avlod ongi shuurida tasavvur hosil qilish, umuminsoniy qadriyatlarni har tomonlama o'rgatish va tatbiq etish davr talabi. Qolaversa, har bir shaxsning zimmasidagi mas'uliyati hisoblanadi. Ana shu mas'uliyatni his qilgan inson kelajak avlodimizning yangi fikrlaydigan, izlanuvchan, mehr-oqibatli, yurtsevar, elparvar egalarini yetishtirishda, tarbiyalashda o'z hissasini qo'shadi. Buyuk allomalarimizning ibratomuz hayotlari, Vatan, xalq uchun qilgan xizmatlari haqida, aziz –avliyolarning ilmi-urfon haqida, mamlakat osoyishtaligi, tinchligi, xalq or-nomusi uchun kurashgan sarkardalar haqida, qolaversa, Vatanning har bir go'shasi xususida ota-bobolarimiz yaratgan rivoyatlar o'zining ilmiy, badiiy ahamiyati bilan qimmatlidir. Rivoyatlar mavzu doirasi nuqtai nazaridan asoslanib, tahlillar, misollar bilan yoritilgan. Rivoyatlarni izchil o'rganish va tatbiq etish yosh avlod kamoloti uchun muhim manba hisoblanadi. Latifa va topishmoqlar esa hozirjavoblikda, tez aytishlar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda, maqollar so'zga husn berishda, fikrni yorqin, ta'sirchan qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz o'z quvonchini, shodligini yoki g'am-hasratini o'z qo'shiqlarida yorqin aks ettirgan. Bolalar tasavvurini, fantaziyasini o'stirishda ertaklar alohida o'rin tutadi. Har bir aytiladigan ertak bolalarda yangicha taassurot qoldiradi. Bolalar ertak qahramonlariga o'xshashga harakat qiladilar, sehrli narsalarga ega bo'lishni istaydilar yoki o'zlari sehgarga aylanib qolishni va qahramon singari behisob kuch-qudratga qodir

bo`lishni orzu qiladilar. Ertaklar yordamida yaxshilik va yomonlik sahrolarida, adir-u tog`liklarida sayohat qiladilar. Ana shu davrdan boshlab nima yaxshi-yu nima yomon ekanligini anglay boshlaydilar. Bolalar ulg`aygan sari o`zlaridan kichiklarga ertak aytib berishga, ularni aqlli, vazmin bo`lishga, o`jar, injiq qiliqlarini tashlashga undaydilar. Ular ham o`zlarini kichik tarbiyachilar sifatida tutadilar. Umuman olganda, xalq og`zaki badiiy ijodi katta-yu kichik, yosh-u qari uchun birdek donishmandlik majmuasi hisoblanadi. Asrlar o`tsa-da, buyuk allomalrimiz asarlarida ta`lim-tarbiya masalalari badiiy ifodalansa-da, xalq tafakkurining mahsuli bo`lgan folklor asarlari ma`naviy jihatdan olamshumul ahamiyat kasb etishda davom etaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – Toshkent, "O'zbekiston", 2000.
2. Karimov I.A. "Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi". 5-tom. – Toshkent, "O'zbekiston", 1997.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent, "Ma'naviyat", 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: "O'zbekiston", 1997.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan) // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: "O'zbekiston", 1997.

II. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar:

6. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2006-yil, № 5.
7. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali . 2006, № 5.
8. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. 3- sinf uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 2014.
9. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 2013.
10. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent," O'qituvchi", 1990.
11. Jumaboyev M. "Bolalar adabiyoti va folklor". –T.,O'qituvchi, 1990.
12. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
13. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh. Dolimov Z. "O'qish kitobi": 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Yangiyo'l poligraf servis" 2013.

14. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: “Aloqachi” nashriyoti, 2008.
15. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili . 2- sinf uchun darslik. – Toshkent: ”Cho'lpon”, 2014.
16. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: ”Noshir”, 2009.
17. Umarova A. O'yin musobaqa darsi. “Boshlang'ich ta'lim”.1992, № 1, 48-bet
18. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. “O'qish kitobi”: 3-sinf uchun darslik. –Toshkent: “O'zbekiston” 2012.
19. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. –Toshkent:”O'qituvchi”, 1992
16. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. “O'qish kitobi”: 1-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Sharq”, 2014.
18. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. “O'qish kitobi”: 2-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Sharq”, 2014.
19. G'affarova T, Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: ”Sharq”, 2014.
20. Gafforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. –Toshkent: Ilm ziyo, 2004.
21. G'ulomova X. 4- sinfda ona tili darslari. –Toshkent: ”O'qituvchi”, 2003.

III Internet materiallari:

22. <http://www.google.com.uz/>
23. <http://www.referat.uz/>
24. <http://www.ziyonet.uz/>